Komilaxon BO'RIYEVA

# ANSAMBL SINFI

## An'anaviy xonandalik



M11

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**Komilaxon Bo‘riyeva**

# ANSAMBL SINFI

(An’anaviy xonandalik)

Talim yo’nalishi: 5150602 – Vokal san’ati an’anaviy xonandalik

*Oliy ta’lim muassasalari uchun*
*o‘quv qo‘llanma*

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI INSTITUTI AXBOROT RESURS MARKAZI Inv. № 1857

**«Musiqa» nashriyoti**
**Toshkent**
**2018**

БИБЛИОТЕКА Инв. № 178543 Таш. Гос. консерватория

M —

**85.364.1**
**Б 99**
**Бўриева, Комилахон.**
**Ансамбль синфи** (Анъанавий хонандалик) [Матн] : ўқув қўлланма / К.Бўриева. – Тошкент : "Musiqa", 2018. – 78 b.

**KBK: 85.364.1**
**UO'K: 783.25**

*Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017-yil 28-iyundagi 434-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

Mazkur o'quv qo'llanma musiqiy san'at yo'nalishidagi Oliy ta'lim muassasalarida ansambl sinfi bo'yicha saboq olayotgan bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma fan dasturi asosida yaratilgan bo'lib, unda talabalarning jo'rnavozlik, ansambl bo'lib ijro etishlariga oid asosiy ma'lumotlar bayon etilgan.

**Mas'ul muharir:** S. BEGMATOV – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent
**Taqrizchilar:** M.TOJIBOEV– O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori
B.DUSTMURODOV – O'zRS dotsenti

Данное учебное пособие предназначено для студентов бакалавриатов, обучающиеся по классу "Ансамблевого исполнения" в высших учебных заведениях.

Учебное пособие создано в соответствии с учебной программой данного предмета и в ней изложены основные сведения, касающиеся музыкального сопровождения и ансамблевого испольнительства.

Ответственный редактор: - С. БЕГМАТОВ – кандидат искусствоведения, доцент.
Рецензенты: М.ТОЖИБОЕВ – профессор Государственной Консерватории Узбекистана.
Б.ДУСТМУРАДОВ – доцент, народный хафиз Узбекистана.

This teaching literature is meant for the students of Baccalaureate course of the High Educational Institutions, who are learning the subject of "Ensemble class".

The teaching manual has been created according to the program of subject of "Ensemble class" and the main information's have been expounded for the students, who play the instruments, as an accompanist and ensemble performer.

Editor-in-chief: S.BEGMATOV – Candidate of Art criticism, Assistant Professor.
Reviewers: M.TOJIBOEV – Professor of the State Conservatory of Uzbekistan.
B.DUSTMURODOV – the public actor Uzbekistan,

ISBN 978-9943-5153-5-2

© "Musiqa" nashriyoti, 2018
© Komilaxон Bo'riyeva, 2018

# Kirish

Musiqa ijrochilik san'ati azaldan shakllanib, davrlar osha rivojlanib hamda zamona nafasi bilan birgalikda ulg'ayib, kamol topib kelayotgan sohalardan biridir. Musiqaning ijodiyot, ijrochilik va amaliyot bilan bog'liq tarmoqlari garchand alohidalik kasb etsa-da, but-butun hisoblanadi. Musiqa ijrochiligi xalq musiqa ijodiyoti va janrlari asosida rivojlanadi. Ijro an'analari va yo'llari ham ijrochilik amaliyoti jarayonida kengayib, boyib borgan. Aslida ijrochilik amaliyoti og'zaki tarzda og'izdan og'izga, avlodlardan avlodlarga o'tib kelgan. Ushbu jarayon xalqimizning ta'limi bilan tutash bo'lgan "ustoz – shogird" an'analari negizida kamol topib kelgan.

An'anaviy ijrochilik ta'limining bizgacha yetib kelgan uslubi – ustoz-shogirdlik maktabidir. An'anaviy xonandalikni kasb etish niyatida bo'lgan har bir ovoz egasi, albatta, muqim bir ustozning etagini ushlab, undan ijrochilik, xonandalik sirlarini o'zlashtirishga harakat qilgan. Bu amaliyot o'z qoidalariga ega bo'lganini alohida qayd etish lozim. Chunki musiqiy qobiliyat, ovoz imkoniyati va san'atga ishtiyoqi bo'lmaganlar bu kasbga murojaat etishmagan. Qobiliyati borlar esa, o'z ustoziga mehr qo'yib, sohasining mushkullik tomonlarini yengib, kasb o'rganishga harakat qilgan. Xonandalikning eng muhim xislatlaridan biri ham shundadir.

Dunyodagi barcha xalqlar kabi o'zbek xalqi ham o'ziga xos milliy qadriyatlari va shu bilan birgalikda o'tmish tarixi davomida vujudga kelgan, shakllanib rivojlangan ma'naviy, musiqiy va adabiy merosiga ega. O'zbek musiqa merosining har tomonlama mukammalligi va ma'naviy boyligi barchaga ayondir. Ma'lumki, har qanday milliy meros davrlar osha avlodlardan avlodlarga o'tib kelgan. Bu, albatta, asrlar osha xalqimizning ma'naviyati sifatida amaliyot rivojiga xizmat qilib kelmoqda. Milliy qadriyatlar, urf, odat, mehnat va hayot jarayoni sekin-asta zamonga moslanib, an'anaga aylanib boraveradi. Milliy musiqa merosimizning shakllanish jarayonida xalq an'analari muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, mavjud an'analar bir-birini to'ldiruvchi, alohida o'ziga xos xususiyati va sifatiga ega bo'lib kelgan.

Azaldan ana'ana tarzida bizgacha yetib kelgan va davr taqozosi bilan zamonaviy rivoj topib kelayotgan xalq musiqasini o'rganish hozirgi kunda har doimgidan ham ahamiyatlidir. Chunki hozirgi umumbashariyat madaniyatlarining o'zaro ta'siri davrida milliy an'analarni saqlash, avaylash va ijodiyotni shunga asoslash juda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Xalq musiqasining azaldan shakllanib kelgan bir qator yo'nalishlari mavjud. Xalq musiqasi, mumtoz musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti shular jumlasidandir. Mumtoz musiqa merosimiz tarkibidan o'rin olgan namunalar "an'anaviy musiqa" deb yuritilgan. An'anaviy musiqaning yirik shakli xalqimizning ma'naviy dunyosini, hayotiy kechinmalarini ohanglarda aks ettirib kelgan maqomlarimizdir. Maqomlarning yurtimizda o'ziga xos vohaviy ahamiyatga ega bo'lgan uch namunasi mavjud. Ular musiqa amaliyotida "Shashmaqom-Buxoro maqomlari", "Xorazm maqomlari" va "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" deb yuritiladi.

Muqarrarki, har bir musiqiy merosning o'z vohaviy jihatlari mavjud. Ana shu jihatlar, avvalo, ularning ijrochilik mezonlarida o'zini namoyon etadi. Ijrochilik ham juda katta va xilma-xil uslublarga ega. Bu uslublar o'z o'rnida turli shakllar bilan ham xarakterlanadi. Eng muhimi, ijrochilik san'atining o'zbek milliy an'analari yuzaga kelgan.

Ijrochilik an'analari ham xalq ijodiyotidagi oddiy va murakkab namunalariga egadir. Maqom ijrochiligi murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bois ijrochilik amaliyotida yakkaxonlikdan toki jamoaviy – ansambl bo'lib ijro etish shakllari yuzaga kelgan. Ansambl bo'lib ijro etishning musiqa ijrochiligi, qolaversa, xalqlarning musiqiy an'analaridagi ijrochilik mezonlari o'ziga xosdir. Har bir xalqning o'z milliy musiqasi va milliy qadriyatlari negizida ansamblli ijro yo'llari shakllangan. Davrlar osha madaniyatimiz rivojlanishi negizida esa o'zbek maqom ijrochiligi yoki maqom yo'llariga mansub mumtoz musiqa ijrochiligida ham o'ziga xos ansamblli ijro an'analari yuzaga kelgan. Bizning davrimiz ansambl ijrochiligining yangi qirralarini ochish, o'tmish an'analari asosida zamonaviy shakllarni yaratish bilan bog'liq. Maqsad ham ma'naviy boyligimizni asrash, ularning mukammalligini o'zlashtirish va yangi talqinlarini yoshlar ongiga

singdirishdan iborat. Chunki mustaqil yurtimizning kelajagi bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama ma’naviyatli, komil inson sifatida tarbiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda. Davlatimizning “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham yosh avlodni hozirgi zamon talabiga to‘la javob beradigan yetuk mutaxassislar qabilida tarbiyalash nazarda tutilgan. Buning uchun ta’limda barcha sharoitlar yetarli darajada mavjud.

Mazkur qo‘llanmada xonandalikni kasb etgan va ushbu yo‘lda saboq olayotgan yosh xonandalar uchun nazariy va amaliy ma’lumotlar bayon etilgan. Unda yoshlarning mavjud ijro uslublarini egallashlarida zarur bo‘lgan ma’lumotlar har tomonlama asoslab berilgan. Xonandalar ijro amaliyotini o‘rganishlarida ushbu nazariy qoidalarga, uslubiy ma’lumotlarga tayanib o‘zlashtirishlari maqsadga muvofiqdir.

Qo‘llanma “Ansambl sinfi” fan dasturiga asoslangan holda, nazariy, amaliy va uslubiy tavsiyalar orqali tushuntirishlar bilan bayon etilgan. An’anaviy xonandalik uchun zarur kasbiy ma’lumotlar, xonish amallari to‘g‘risida bilimlar berib o‘tilgan. Eng muhimi, an’anaviy xonandalikda zarur bo‘lgan xususiyatlar ilmiy va amaliy asoslangan holda talabalar e’tiboriga havola etilgan. Zamon xonandalari ma’lumotlarni o‘zlashtirsalar va ularga tayangan holda kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirsalar, ayni muddao bo‘ladi. Xususan, maqom ustozlari va yosh xonandalar uchun ansambl bo‘lib ijro etish bo‘yicha ijrochilik amaliyotida va ustozlar an’analarida yuzaga kelgan uslubiy ma’lumotlarni “Saraxbori Segoh” va taronalarining ijroviy jarayoni misolida ochib (sharhlab) berishga harakat qilindi.

Aynan shu uslubga xos yo‘lda o‘zlashtirish masalalariga to‘xtalib o‘tdik. Uslubiy tavsiyalar yosh xonandalarning o‘z kasblariga ijodiy munosabatda bo‘lishlari uchun asos bo‘lishi mumkin va an’anaviy xonandalikni o‘zlashtirayotgan yoshlar uchun dasturulamal bo‘lsa ajab emas.

# ANSAMBL

**"Ansambl"** ( fransuzcha "ensemble" – birlik, uyg'unlik, ohangdoshlik) – 2) musiqada – a) ma'lum musiqa asarlarining bir necha ijrochilar tomonidan birgalikda ijro etilishi... Ijrochilar soniga qarab ansambllar duet (2 kishi), trio yoki terset (3 kishi), kvartet (4 kishi), kvintet (5 kishi), sektet (6 kishi), septet (7 kishi), oktet (8 kishi), nonet (9 kishi) va h.k.larga bo'linadi"[1]. Oddiy qilib aytganda, jamoa bo'lib faoliyat olib borishga aytiladi. Amaliyotda juda ko'p sohalarda, hattoki, yirik inshootlarga nisbatan ham ishlatiladi.

Ansamblga berilgan bu ta'rifda musiqa ijrochiligida mavjud barcha jamoaviy ijrolarning shakli va tarkibi ifodasini topgan. Darhaqiqat, ansambl ijrosi musiqa ijrochiligining barcha turlarida mavjud va ularning tarkibiy jihatlari bir-biriga mutanosib. Faqat ularning ijroviy jarayonidagi yo'nalishlar bir-biridan farqlab turadi. An'anaviy xonandalik ijrochiligida mavjud bo'lgan ansambl turlari ham bunga to'la asoslanganligi amaliyotda o'z ijobatini topgan. Demak, xonandalik amaliyotida "ansambl" deb jamoa bo'lib xonish qilishga aytiladi.

O'zbek musiqa ijrochiligida ansambl, ya'ni jamoa bo'lib ijro etish ko'nikmalari qachonlardir amaliyotga kirib kelganini xalq ijodiyotidan bilib olish mumkin. Bu xalq milliy marosimlari, tomosha san'ati, teatrlashgan jamoalar xonishlarida o'zini namoyon etib kelgan. An'anaviy ijrochilikning jamoaviy xonishlari ham vaqt taqozosi bilan sekin-asta an'anaga aylangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bunga asarlarning keng ko'lamliligi, katta avjlar bilan ijro etiladigan murakkablarining yaratilishi va ochiq joylarda xonish jarayonlarini o'tash sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Ilk ansambl 1923-yil To'xtasin Jalilov rahbarligida, 1927-yil radio qoshida, Yunus Rajabiy rahbarligida tashkil etilib, faoliyat yuritgan. Turli tarkiblarda tuzilgan ansambllar faoliyati XX asrning birinchi yarmidayoq keng ommalashgan va amaliyotga keng joriy etilgan. 1957-yili Yunus O'zbekiston teleradiosi qoshida Rajabiy rahbarligida maqomchilar ansambli tashkil etilishi ulkan voqeaga aylandi. Ansambl o'z faoliyatini o'zbek mumtoz musiqa merosini

---

[1] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.-T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", Davlat ilmiy nashri. 538-bet.

qayta tiklash va ijro amaliyotini mustahkamlash bilan boshlagan. Natijada Shashmaqom tarkibidagi aksariyat namunalar ijro etilib, plastinkalarga, magnit tasmalariga yozib olingan. Avvalo, ushbu ansamblning tarkibi eng ko'zga ko'ringan, mashhur va ustoz san'atkorlardan tuzilgan. Ular sozandalik va xonandalikda benazir ustozlar bo'lgan. Qolaversa, Shashmaqom va maqom yo'llarining bilimdonlari bo'lganliklari, ansambl rahbarlarining benazir maqomdonligi sabab musiqiy merosning to'liq hamda mukammal ijrosiga erishganlar. Buning barchasi bugungi kungacha ijrochilar uchun dasturulamal sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Ushbu ansambldan keyingi avlod uchun ustoz Yunus Rajabiyning ijro uslubi, qoldirgan ulkan merosi namunadir. Shu bois bo'lsa kerak, har bir tashkil etilgan, ya'ni san'atkorlar jamlangan ansambl, avvalo, mavjud merosni o'zlashtirishga, agar bilimi, ilmi va imkoniyati bo'lsa, uning yangi talqinini topishga harakat qiladi. Eng muhimi, o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab turli viloyatlarda, musiqa bilim yurtlarida, madaniyat maskanlarida jamoa bo'lib ijro etuvchi maqomchilar ansambllari tashkil etilib, faoliyat yuritib kelmoqdalar. Oxirgi 30 yil davomida Yu.Rajabiy nomidagi maqom ansamblining o'zi Shashmaqomning aksariyat qismlarini yangi talqinda magnit tasmalariga yozishga muvaffaq bo'ldilar. O'zbekiston davlat konservatoriyasining An'anaviy ijrochilik kafedrasi professor-o'qituvchilaridan tashkil topgan Faxriddin Sodiqov nomidagi maqomchilar ansambli o'z faoliyati bilan ushbu sohada yana bir mukammal jamoaning bunyod bo'lganligini namoyon etdi. Bu ansamblning oliy o'quv dargohida tashkil etilgani kelgusi avlodning zamonga munosib tarbiyalanishida o'quv laboratoriyasi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Musiqiy merosni mukammal holda talqin etish xonanda va sozandalardan saboq, bilim, malaka va mahorat talab etadi. Aynan ana shu jihatlarni oliy ta'lim tizimida yoshlarga ulashib kelayotgan dargohda an'anaga munosib kelajak avlod tarbiyalanmoqda desak adashmagan bo'lamiz. Chunonchi, an'anaviy xonandalikni egallashga kelgan yoshlar, albatta, jo'rovozlik, birgalikda ansambl bo'lib ijro etish malakalari bo'yicha ham saboq oladilar.

An'anaviy ijrochilikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri jo'rovoz bo'lib ijro etishdir. Jo'rovozlik o'zbek musiqa

ijrochiligining sehrga boy jarayonlaridan biri sifatida amaliyotda qo'llanib kelingan. Odatda, ikki yoki undan ortiq ovozlarning birgalikda, bir vaqtda ijro etishi juda murakkab jarayon hisoblanadi. Xonandalarni bir-biriga mos holda tarkiblash va asarni chiroyli talqin etishga erishish uchun xonandalar bir qator tabiiy va amaliy jihatlarga ega bo'lishlari kerak. Shu bois jo'rovozlikning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari mavjud ekanligi qayd etiladi. Har bir xonanda ijro etadigan asar nafas bilan bog'liq bo'lganligi bu jihatni ko'rsatib beradi. Ikki va undan ortiq xonandalarning nafas olishlari va talqinda nafasni bir-biriga mos holda qo'llashlari ahamiyatli ekanligini e'tirof etish lozim. Shuning uchun xonandaning o'quv jarayonida asarni o'zlashtirishi va mashq davri juda muhim. Bu borada xonanda, ayniqsa, mumtoz musiqa xonandasi ustoz ko'rishi shart. Ta'lim jarayonida ham ustozlarning e'tibor beradigan tomonlari: xonandalarga xos jihatlar hisoblanadi. Chunki tarbiyalash davrida ularning xonandalarga xos jihatlari, ayniqsa, ovozlarini egiluvchanlik, ta'sirchanlik va talqin etishga qodir bo'lishlari alohida ahamiyatga ega. Aslida, ansambl ijrochiligi uchun xonandalardagi bu jihatlarning mutanosibliklari tanlab olinadi.

An'anaviy musiqa xonandasining ijroviy imkoniyatlarida qanday jihatlar bo'lishi kerakligi professional ashula ijrochiligi amaliyotining uslubiyotida ta'rif etilgan kitoblarda o'z ifodasini topgan. Xususan, ularda an'anaviy xonandalar uchun quyidagi xususiyatlar muhimligi ham nazariy va amaliy ijobatini topgan. Ya'ni: 1) tabiiy jihatlar – iste'dod, ovoz, tasavvur, idrok, tafakkur, slux (tinglash qobiliyati), es (hofizasi kuchli) va talqin; 2) amaliy, ya'ni amaliyotda o'zlashtirishi kerak bo'lgan va ko'nikmalar hosil qilishi lozim bo'lgan jihatlar: slux (tinglash qolbiliyati)ning muntazam mashg'uloti; so'z va ohanglarni yod olish ko'nikmasining rivoji; ohang va so'zlarni idroklagan holda talqin etish ko'nikmasi; aniq talaffuz; ravon va mazmunli talqin; musiqani tinglash va ijroda unga ergashish; ovozni to'g'ri ishlatish; jo'rovozni tinglash va birgalikda talqin etish, ya'ni hamnafasni sezib ijro etish hamda asarga ijodiy munosabatda bo'lish. Aslida bu jihatlar xonandalarning kasbiy-professional ko'nikmalari bo'lishi lozim. Ayni holda ko'rsatilgan sifatlarning aksariyati ansambl ijrochiligi uchun xarakterli ekanligini qayd etish lozim.

Ansambl bo‘lib ijro etishdagi bu jihatlarning har biri o‘zining xususiyatidan kelib chiqib, amaliy jihatlariga ega. Bu jihatlarning xonandalarda bo‘lishi va yaxshi tarbiyalanishi mukammal, an’ana va zamon talabiga mos xonandalar yetishib chiqishi uchun asos bo‘ladi. Mukammal ijro maqomlarning talqini uchun eng zarur omil hisoblanadi. Maqomlarning ohang tizimi, usul vositalari, har bir maqomlarga xos mavzularni bilib, xarakterini ochib berish uchun zarur ijroviy vositalarni qo‘llash, har qanday asarni talab darajasida talqin etishda va tinglovchilarga mukammal tarzda yetib borishida katta ahamiyat kasb etadi.

An’anaviy xonandalikda ansamblning: ikki, uch, to‘rt, olti; ko‘pchilik; faqat ayol ovozlar; faqat erkak ovozlar; aralash ovozlar jo‘rligidagi tarkiblari amaliyotda ko‘proq qo‘llaniladi. Bular musiqaning nazariy va amaliyotida duet, trio, kvartet, kvintet, sekstet, oktet va h.k. iboralarida ifodalanadi. Bu, albatta, ansamblning turlariga kiradi. Har qanday ansambl o‘z ishtirokchilarini har tomonlama bir-biriga munosib va mutanosib bo‘lishini talab etadi.

**Duet** – lotin tilida “*duo*”– ya’ni “ikki” demakdir. Ikki ijrochidan tuzilgan ansambl[2]. Professional musiqa amaliyotida har bir ijrochi o‘zining partiyasiga ega bo‘ladi. An’anaviy musiqa ijrochiligida “jo‘rovoz” deb yuritiladi. Jo‘rovozlikning o‘zbek mumtoz musiqa amaliyotida bir qator ko‘rinishlari mavjud. Jumladan: katta ashula ijrochiligi; maqom ijrochiligi; mumtoz xonandalik ijrochiligi; xalq ijrochiligi; aytishuvlar yo‘nalishlari. Mumtoz musiqa ijrochiligidagi jo‘rovozlikning o‘ziga xos tomonlari: bir asarni ikki xonanda tomonidan talqin etilishi. Bunda ovozlarning bir-biriga mosligi ijroda keng ko‘lamlikni taqdim etadi. Kerak holatlarda xonandalar alohida-alohida bo‘lib, ovoz almashtirib ijro etish usulidan foydalanadilar.

**Trio** – italyancha “tre” – “uch” so‘zidan olingan. Uch ijrochidan tuzilgan ansambl[3]. Odatda bu ibora cholg‘u ansambli ijrochilariga nisbatan qo‘llaniladi. Lekin opera ijrochiligida ham o‘ziga xos o‘rni mavjud. O‘zbek an’anaviy xonandalik amaliyotida uchta xonandaning ansambl bo‘lib ijro etishlari ham amaliyotda

---

[2] I.Akbarov. Musiqa lug’ati.-T., 1987-y. 112 - bet.
[3] Shu kitob, 359-bet.

ko‘p uchrab turadi. An’anaviy ijrochilikdagi uch xonanda talqinining ko‘lami boy bo‘lishi va jozibasining mukammalligi e’tiborlidir. Garchand xonandalik amaliyotida ko‘p uchrasa-da, maqom ansambllarining turli variantlaridagi ijrolarda uch xonandaning birgalikdagi talqini ansambl ijrochiligini boyitadi va to‘laqonli talqin etilishini ta’minlab beradi. Shu bois ushbu tarkib katta ashula ijrochiligida o‘ziga xos ifodasini topganligini ko‘ramiz.

**Kvartet** – to‘rt xonanda, **kvintet** – besh xonanda, **sekstet** – olti xonanda, **oktet** – sakkiz xonanda ishtirokidagi ansambllar ham an’anaviy ijrochilik amaliyotida uchrab turadi. Ushbu ansambllar vaziyat taqozo etgan holatlarda qo‘llanilgan. Ushbu ansambllarda ichki tartibda ovozlarni bo‘lish imkoniyatlari katta va ommaviy sahnalarni boyitish ma’nosida hamda yosh ovozlarni tarbiyalash ma’nolarida qo‘llanib kelingan.

Xonandalarning kichik guruhlar tarkibida xonish qilishlarining o‘ziga xos jihatlari mavjud. Bu ijrochilikdagi ayrim talqin sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishda hamda ijro uslubi kabi ko‘nikmalarni hosil qilishga asos bo‘ladi. Aslida xonandalikda muayyan saboqqa ega bo‘lgan xonanda ansambl tarkibida ijro etishi ma’qul. Chunki ansamblning eng kichik guruhi bo‘lmish jo‘rovozlik va jo‘rnavozlikning yozilgan va yozilmagan qonuniyatlari mavjud. Bu, albatta, uch, to‘rt, besh va boshqa ansambllarga ham tegishli. Jo‘rovozlikda ovozlarning qanchalik tarbiyalanganligi darrov sezilib qoladi. Tarbiyalangan ovoz va xonishlarda ijrochi talqinning har bir pardasiga e’tibor beradi.

Jo‘rovozlik tarbiyasining eng birinchi qadamlari xonandalarning nafasi bilan bog‘liqdir. Har ikki ijrochida ham bir xil nafas ishlatish ko‘nikmasi hosil bo‘lgan bo‘lishi kerak. Buning uchun xonandaning his etish qobiliyati, sherigi talqiniga nisbatan sezish va birgalikda aytish hissi mutanosiblikda bo‘lishi talab etiladi. Asosiy mezon bir asarni jo‘rovozlikda – bir xil ovozda (ovozlar ham qo‘shilganda o‘ziga xos joziba hosil qilishi lozim), bir xil talaffuzda, bir xil nafasda, bir xil ehtirosda, bir-birini to‘ldiradigan holatda ijro etilishiga ahamiyat qaratish lozim. Ana shundagina xonandaning ijro talqinida jo‘rovozlik xususiyatlari rivojlanadi.

Jo‘rovozlikni egallashda ham ustozlarning ijrolarini muntazam tinglab borish, ularning ijro uslublarini egallashga harakat qilish, so‘z va ohangning birgalikdagi talaffuziga e’tibor berish, xonish qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish kerak. Shundagina jo‘rovozlikning ijroda zarur bo‘lgan xususiyatlarini o‘z ijrosida aks ettirish mumkin. Lekin xonandalikda, ayniqsa, ansamblli ijroda tajriba alohida ahamiyatga ega. Buning zaminida xonandalarning ko‘p yillar davomida jamoa bo‘lib faoliyat olib borishlari yotadi. Ma’lum muddat ansambl bo‘lib ijro etgan xonandalarda bir-birini tushunish, his etish va kabi o‘ziga xos tajriba shakllanib boradi.

Ansambl – bu, jamoa dedik. Demak, jamoaning tartibli bo‘lishi, ovozlarning go‘zal uyg‘un topishi, chiroyli asarlarni ijroda namoyish etishi uchun ularni tarbiyalash lozim. Ya’ni ansambl ijrosining o‘ziga xos tarbiyasiga rioya qilinadi. Ana shu tarbiya orqali ansambl bo‘lib ijro etish sifatlari kasb etiladi.

Ansamblda xonandalar ovozining ahamiyati yoki roli qanchalik mavjud bo‘lishi mumkin? Albatta, insonlarning ovozi bir-biriga o‘xshamaydi. Lekin xonish paytida ovozlarning qo‘shilishi bilan boshqacha joziba yuzaga keladi. Musiqadagi ovoz tusi, ya’ni tembri degan so‘z shuning uchun tanlangan bo‘lsa ajab emas. Ovozlar umuman bir-biriga o‘xshamasligi mumkin, lekin ularning jo‘rovozlanishida o‘ziga xos un hosil bo‘ladi. Masalan, ustoz san’atkorlardan Jo‘raxon Sultonov va Ma’murjon Uzoqov, Akmalxon va Boboxon So‘fixonov yoki aka-uka Shojalilovlarning xonishlarini tinglagan paytda tinglovchi tasavvurida muayyan ovoz tembri paydo bo‘ladi. Shu bois xonandalarda, avvalo, ovoz bo‘lishi lozim va ular sadoli, mazmunli, tarovatli, usulli, dardli, ehtirosli bo‘lsa, nur ustiga a’lo nurdir. Har qanday ansambl xoh u sozlardan iborat bo‘lsin yoki xonandalardan, o‘z ishtirokchilarini har tomonlama bir-biriga mutanosib bo‘lishini talab etadi.

Ijodiy jamoa, ya’ni ansambl uning tashkilotchisi (rahbar) tomonidan maqsadli ravishda tashkil etiladi. Ana shu jarayondagi maqsad ansambl ishtirokchilari bo‘lmish xonandalarni tanlansh va saralab olish uchun asos bo‘ladi. Maqom ansambli uchun maqom ijrochiligidan xabardor, shunga xos ovoz imkoniyatlariga ega bo‘lgan xonandalar tanlanishi lozim. Qayd etish joizki, dastlabki vaqtlarda ansambl har tomonlama mukammal tarkibga ega

bo‘lmaydi. Bu ancha murakkab jarayon. Har xil sharoitlarda, rang-barang ovozlarga ega bo‘lgan xonandalarning jamlanishini kuzatish mumkin. Ko‘p hollarda, bor ovozlardan ansambl shakllantirishga to‘g‘ri keladi. Bu, albatta, tabiiy holdir. Ana shu shakllantirish jarayoni ansambl uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bu, avvalo, mavjud ovozlardan keng foydalanishni, ovozlar taqsimoti, jo‘rovozligi va ijrodagi ketma-ketligini oqilona hal qilishni talab qiladi. Ustozning tajribasi, mahorati va bilimi negizida jamoa shakllanadi va o‘zining ijrosini topishga harakat qiladi. Ansambl shakllangandan so‘nggi bosqich jamoaning faoliyati bilan bog‘liqdir.

Ansamblning kamol topishi, xonandalarning jo‘rovozlikda kuylash ko‘nikmalarining rivojlanishi, ansamblda jamoaga xos talqin etishni o‘zlashtirish jamoaning ijodiy faoliyati bilan xarakterlanadi. Eng avvalo, ustoz – rahbarning jamoani o‘zlashtirib olishi: ularga mos munosabatda bo‘lishi, ijro repertuarini qatnashchilarning imkoniyati, ovozi, ijrosiga mosligini ta’minlash bilan bog‘liqdir. Ta’lim jarayoni uchun mo‘ljallangan o‘quv dasturlarning oldindan shakllanishi va ularga keng imkoniyatlar berilishining sababi ham shundadir. Ustoz va shogirdlarning, ya’ni talabalarning imkoniyatlari va har tomonlama xarakterli jihatlarini inobatga olgan holda ustozona shaklda saboq o‘tilsa, albatta, ansambl tobora mukammallashishi muqarrar.

## XONANDALAR UCHUN ZARUR BO‘LGAN JIHATLAR

Ma’lumki, xonanda uchun ijodkorlik faoliyatida zarur bo‘lgan barcha jihatlar mustajo bo‘lishi – faqat mukammal ijroni ta’minlab beradigan jarayondir. An’anaviy xonandalikda ham xonandalar yoshlariga nisbatan zarur bo‘lgan xususiyatlarni va vaqtiga (holatiga) qarab tarbiyalanadigan va rivojlantiriladigan jihatlarni o‘zlashtirishlari va katta e’tibor bilan o‘rganishlari lozim. Mutaxassislar tomonidan tabiiy iqtidor, albatta, ijroda o‘zini namoyon etishi muqarrarligi e’tirof etilsada, tinimsiz va maqsadli

mashg'ulotlar, tarbiya va bilim jarayoni ham amaliyotda o'zini namoyon etishi begumondir.

An'anaviy xonandalikni kasb etuvchi yoshlarning imkoniyat darajalari xususida taniqli bastakor, sozanda va xonanda O'.Rasulov quyidagilarni zikr etgan: "...ovozlarni an'anaviy xonandalikka tayyorlashda quyidagilarga e'tibor berish kerak: 1. Ovoz sadosi; 2. Tabiiy tarzda shakllangan xonandalikka xos unsurlar: nola, qochirim, va h.k.; 3. Xotira, zehn, iqtidor; 4. Kuyga, she'rga munosabat; 5. Nutq; 6. Ta'limga qadar ularda shakllangan musiqiy idrok va talqinning darajasi"[4]. Bu, albatta, har bir ijrochining xonandalikka kirib kelishida zarur hisoblangan va ustozlar e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlardir. Mukammal xonishni ta'minlash uchun ushbu jihatlarning barchasi xonandada ma'lum darajada bo'lishi talab etiladi. Ularning tarbiyasida esa mukammal xonish qiluvchi shaxs, ya'ni xonanda shakllanadi.

Xonanda uchun zarur bo'lgan har bir jihatning zaminida yana bir qator o'ziga xos to'ldiruvchi va muhim ahamiyat kasb etuvchi amallar ham mavjud. Tabiiy jozibaga egā ovozli xonandada ***iste'dod, ovoz***, ***idrok, tafakkur, slux, es (xotira),*** albatta, ***nafas*** va ***nutq*** mezonlari yoki nutq jarayonida ***talaffuz***, musiqiy idrokda ***tasavvur,*** xonishda go'zal ***talqin*** kabi unsurlarning muhimligini ham alohida qayd etish lozim. An'anaviy xonandalar o'zlari uchun zarur jihatlarning nazariy va amaliy negizlarini anglashlari, bilib olishlari va ulardan amaliyotda keng foydalanishlari foydadan xoli emas.

**Iste'dod** – "Talant – nihoyatda zo'r qobiliyat, biror sohada yuksak darajadagi layoqat. U idrok, tasavvur, tafakkur, xotira, kuzatuvchanlik benihoya o'sganligida, voqea-hodisalarning yangi qirralarini, ularning zamiridagi murakkab aloqadorlikni kashf etishda ko'rinadi"[5]. Bu ta'rif keng ma'noda va barcha sohalarga tegishli ekanligini tushunish mumkin. Musiqa san'atida, ayniqsa, xonandalik san'atida iste'dodning turli shakllari uchrashi va iste'dod ham tarbiyalanishga xos ekanliklarini kuzatish mumkin. Shu bois, iste'dodli xonandaning tarbiya jarayoni ulkan natijalarga asos bo'lishi muqarrar.

---

[4] O'.Rasulov. "An'anaviy xonandalik o'qitish metodikasi".-T., 2006-y. 9-10 betlar.

[5] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. I harfi, 367-bet.

Iste'dod xususida tadqiqot olib borgan olim B.Qodirov uni quyidagicha ta'riflaydi: "Iste'dod – ko'p qirrali, murakkab, ham irsiy-biologik, ham ijtimoiy ahamiyatga molik hodisadir"[6].

Xonandalikda iste'dod muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan biridir. Chunki xonandalikning turli ijroviy yo'llari mavjud. Iste'dod xonandalikda, boshqa sohalar kabi, ijro mahoratida o'z aksini topadi. Xonandaning ohang tarannum etishdagi, asarlar ijrosidagi merosga va an'analarga xos bilimlarni o'zlashtirish darajasi, ijroda xonish masalalarini hal etishi, bu borada amalga oshirgan ijodi, qobiliyati va xonish malakalarini amaliyotga tatbiq qila bilishida o'zini namoyon etadi. Amaliyotda va hayotda iste'dod haqida turli fikrlar aytilgan. Ularning eng birinchisi: Yaratgan tomonidan berilgan iste'doddir. Bu albatta turli yo'llar bilan avloddan avlodga o'tadi. Jumladan, o'zbek san'atida "ustozoda" deb yuritiladi, ya'ni nasldan o'tadi. Ikkinchisi, ko'p hollarda uchraydigan, xonandalik qobiliyati bor shaxslar. Ularning kuylash jihatlari amaliyotda ustoz-shogird asosidagi xonandalar tarbiyasi orqali shakllantiriladi. Ulardagi iste'dod tufayli amaliyot davomida turli yutuqlarga erishiladi. Uchinchidan, xonandadagi tug'ma iste'doddir. Bu jarayon xonandaning ijrochilik faoliyati davomida o'zini namoyon etadi va nisbatan keskinroq rivojlanadi. Bu o'rinda iste'dodning o'ziga xos belgilari ham bo'lishi mumkin. Bular: xonandaning kuchli sezgisi; tez anglab olish; eslab qolish darajasining balandligi; bilishga, anglab olishga intilishning balandligi; katta asarlarni o'rganish ishtiyoqi; sodda va oson asarlarga e'tiborsizlik; yangilikka chanqoqlik; ashulalarni turli variantlarini qidirib topish va ularni o'zlashtirish; o'zini o'zi tergab turish; o'z oldiga murakkab maqsadlarni qo'yish va shunga o'xshash xislatlar.

Qayd etish joizki, iste'dodli har bir kishi muayyan kasbni tanlashi va unga oshiq bo'lishi lozim. Musiqa san'atida bunday hol kam bo'lsa-da, uchrab turadi. Ayniqsa, sozandalik sohasida bir nechta cholg'ularning mukammal ijrosiga erishish, ijroviy jihatidan turli bo'lgan (damli, urma-zarbli, chertla, kamonli va h.k.) cholg'ularni o'z uslubida sof ijro etish kabi imkoniyatli

[6] Qodirov B. Iste'dod. "Tafakkur" jurnali.-T., 2007-y. № 3, 65-bet.

sozandalarimiz mavjud. Xonandalikda bu jarayonni amaliyotda mavjud ijroviy uslublariga ega, sof talqiniga erishgan va ijodiy munosabatlari mavjud bo'lgan san'atkorlarga nisbatan qo'llash mumkin.

Xonandalik ham alohida kasb sifatida o'z qonun-qoidalariga ega. Amaliyot davomida xalq musiqasi namunalarining ijrosi va mumtoz musiqa ijrochilik an'analari yuzaga kelganligi barchaga ayondir. Xonandalikda ham mukammal ijro muayyan bilim, ya'ni musiqiy merosni o'zlashtirganlik va ijrochilik an'analarini qunt bilan o'rganganligi bilan izohlanadi. Bunday ijroga erishish uchun xonandaga ijro ko'nikmalari hosil bo'lishi lozim. O'z-o'zidan maqomlarni kuylab ketib bo'lmaydi. Shuning uchun xonandaga ma'lum darajada erishilgan va amaliyotda sinalgan malaka lozim bo'ladi. Xonandaning malakasi ijrochilik amaliyoti bilan bog'liq. Xonanda muayyan asarni o'rganib, uni amaliyotda ijro etish va bu jarayonni muntazam davom ettirishda o'zini ko'rsatadi va mukammallashib boradi. Shuning uchun xonandalarga malaka juda katta ahamiyatga ega bo'lgan jihat hisoblanadi. Malakaning asosi esa saboq va uning talqinidir.

Iste'dodni ham o'z o'rnida tarbiyalash kerak bo'ladi. Tarbiya esa merosga xos, an'anaga mos bo'lishi uchun muayyan ustozdan ta'lim olish juda muhim. Bizning ijrochilik amaliyotimizda "har maqomga yo'rg'alaydigan" xonandalar ko'p. Demak, iste'dodning o'sishi uchun nimalarga e'tibor berish lozimligini bilish muhim. Avvalambor, xonandaning qobiliyati va shu kasbni o'rganishga moyilligi bo'lishi lozim. Odatda, buni amaliyotda ustozlarning o'zi bir ko'rishda anglab oladilar. Qolaversa, da'vogar ham buni o'z xatti-harakatlari, intilishi bilan bildirib turadi. Musiqa san'atidagi iste'dod yuqorida keltirilgan musiqiy jihatlarning barchasida bo'lishi lozim.

Qobiliyat va moyillik munosabat talab etadi. Xususan, ularning o'sishi uchun ma'lum sharoit yaratilishi ko'zda tutiladi. Sharoit, avvalo, ustoz tanlash, kasbni o'zlashtirish, muntazam shug'ullanish (saboq) va mashg'ulotlar bilan bog'liq. Agar amaliy mashg'ulotlar nazariyot bilan birga olib borilsa, uning ko'lami yanada oshadi. Xonandaning bilimi ham mukammal bo'ladi. Bu, albatta, xonandaning tarbiyasi hisoblanadi va xonanda tarbiyalanib,

kamolotga yetgandagina o'zining ijrosi bilan iste'dodini namoyon eta oladi.

Iste'dodning ko'lami juda keng, uni qanchalik namoyon etish xonandalarning o'ziga bog'liq. U bir jihatlama bo'ladimi, ko'p jihatlama bo'ladimi, albatta, bu uning saboq jarayoni, ta'limining mukammalligiga bog'liq. Xonanda mehnatsevarligi samarasini namoyon etgan taqdirda ijro amaliyotida yangilik yaratishi mumkin. Buni xonandalikda o'z ijro uslubini yaratgan yoki o'zining ijro talqiniga ega xonanda sifatida e'tirof etishadi. Lekin iste'dod bo'lsada, ovoz bo'lmasa ham qancha ta'lim berganingiz bilan u xonandaning dong'i chiqmaydi. Ko'p gap ovozga ham bog'liq ekanligi bu holatda o'zini namoyon etadi.

**Ovoz.** Xonandaning muhim quroli ovozdir. Ovoz ham qobiliyatli bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning ustiga u xushovoz bo'lsa, undan ham a'lo bo'ladi. Demak, ovoz ham turli xil bo'lishi muqarrar. Ma'lumki, musiqada birlamchi jarayon – tovush. Tovush chiqarish uchun unga turli vosita, harakatlar bilan erishish mumkin. Tovushlarni ma'noli, his-tuyg'ular orqali mukammal tarannum etishga, avvalo, inson ovozi qodirdir. Musiqashunos S.Begmatov "Xonandalik san'ati" kitobida tovushni shunday ta'riflaydi: "Xonanda ovozida tovush kuchi, balandligi, qattiqligi va barchasini uyg'unligida hosil bo'ladigan tembri mavjud. O'zbek an'anaviy xonandalik san'atida shu bilan birga ko'rinishga ega bo'lmagan, lekin his etishda anglanadigan ovoz tarovati, mungi, dardi, bezagi, xirgoyisi bor bo'lib, darhaqiqat to'laqonli ma'noga ega bo'lgan ovozni tashkil etadi. Chunonchi, mumtoz xonandalik amaliyotida aynan mana shu jihatlar ijroning ehtirosli xususiyatlari sifatida ijobiy baholanib kelingan"[7]. Albatta, ovozning mavjud barcha imkoniyatlaridan keng foydalana olish, bularni xonishda ko'rsata bilish, tinglovchilarga ta'sir o'tkaza olish xonandaning eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan jihatlari hisoblanadi.

Xonandalarning ovozini ham o'z imkoniyatlari bor. Ovozning sifati, jarangdorligi, tobiga kelishi, elastik tebranishlari muhimdir. Ovozning bir jihati tabiiy iste'dod bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, ularning ta'lim bilan bog'liq tomonlari ham muhim ahamiyat kasb

---

[7] S.Begmatov. Xonandalik san'ati.-T., 2007 y. 20-bet.

etadi. Ya'ni saboq davri (ustozi, uning uslubi, ovoz imkoniyatlariga muvofiq dastur tanlashi va h.k.), mashq jarayoni (bilib-bilmasdan mashq qilish ham xonanda ovozida noro'g'ri ko'nikmalarni shakllanishiga olib keladi) va h.k. Shuning uchun xonandalar, avvalo, ovozni to'g'ri ishlatish va ijro mahoratini egallashi lozim. Shundan so'ng uni rovojlantirish maqsadga muvofiq. Qayd etish lozim, ijro amaliyotida ovozlarning tusiga nisbatan turlari juda ko'p. Ular bir-biridan farq qiladigan jihatlarga ham ega. Amaliyotda ikkita bir xil tembrli ovoz juda kam uchraydi.

"O'zbek an'anaviy xonandalik san'ati amaliyotida, – deb yozadi S.Begmatov, – juda ko'p ovoz turlari uchraydi. Mutaxassis xonandalar ularni o'z xususiyat va sifatlaridan kelib chiqib nomlab kelganlar. Masalan: "Shirali ovoz", «Tik ovoz», «Dovudiy ovoz», «Kuchli ovoz», «Po'ng' ovoz», «Hasta ovoz», «Dardli ovoz», «Manqa ovoz», «Ta'lag ovoz», «Baqiroq ovoz», «Mungli-yig'loqi ovoz», «Qo'ng'iroq ovoz» va h.k. Xonandaning ovozi faqat ularning xususiyatlari bilan emas, balki ijroviy diapazoni bilan ham xarakterlanadi."[8] O'zbekiston xalq hofizi, ustoz san'atkor Fattohxon Mamadaliev ham o'zbek hofizlarining ovozlari, har bir ovoz turi xususida ta'riflar keltirilgan risola nashr etgan[9].

Ovozlarni ijrochilikda amal qiladigan ovoz hosil qilish texnikasiga ko'ra, olimlar bir qator izlanishlar olib borganlar. Jumladan, D.Mullaqandov o'z tajribasidan kelib chiqib, o'zbek milliy ashulachiligining ovoz xususiyatlarini turlarga bo'lib chiqqan. U o'zbek xonandalarining ashula aytishda ishlatadigan usullarini 3 turga bo'lgan: birinchisi, «Binnigi» (dimoq); ikkinchisi, «Guligi» (tomoq); uchinchisi, «Ishkami» (qorin)[10] deb belgilagan. Olim bu uchchala talqin etish texnikalariga ilmiy-nazariy ta'rif berib o'tadi. Olimning an'anaviy xonandalikka nisbatan bergan ushbu ta'rifi juda o'rnida amalga oshirilganiga shubha yo'q. Lekin o'zbek mumtoz xonandaligi amaliyotida bundan-da, ko'proq ovoz hosil qilish usullari bor. Masalan, ko'krak ovoz ham xonandalarimiz amaliyotida keng ommalashgan. Yoki ovozni ta'lag ortiga olib talqin etish usuli, xonandalikda mavjud barcha usullardan

---

[8] Shu kitob, 21-bet.

[9] F.Mamadaliyev. "An'anaviy xonandalik ovozlari.

[10] Д.Муллақандов. О некоторых особенностях и видах узбекского национального пения, //Народные музыканты Узбекистана.-Т., Гос. изд. 1959. 19-23.

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTI AXBOROT RESURS MARKAZI Inv. № 1857
БИБЛИОТЕКА Инв. № 178543 Таш. Гос.

foydalanib talqin etish usuli, sun'iy ovoz «falset»dan keng foydalanib kuylash va h.k.

Ovozi qanday bo'lishidan qat'i nazar, har bir xonanda uni asrashi kerak. Asrash esa o'z organizmiga asoslangan bo'lishi lozim. Har bir xonandaning tabiati, ko'nikmalari asosida shaxsiy ovoz gigiyenasiga rioya qilishi juda muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir ovozning kuch sarflash chegaralarini saqlab talqin etish ko'nikmalariga ega bo'lish xonandalar uchun muhimdir. Bu xonandalarning tasavvur doiralari kengligi va uni amaliyotda qo'llashda o'z imkoniyatlariga ishonchini anglatadi. Ovozni xonanda 17-18 yoshdan o'tgandan so'nggina ohistalik bilan yo'lga qo'yish lozim. Avvalo, har bir xonanda o'zining ijro etish usulini qurishi kerak bo'ladi: ya'ni ijroda ovozni hosil qilish. Shundan kuylash malakasini shakllantirishi lozim. Buning uchun yuqorida aytilgan ovoz talqin etish uslublarini yaxshi bilib, o'z organizmiga mos uslubni tanlashi maqsadga muvofiq. Saboq jarayonida o'qituvchi talabaning imkoniyatlarini bilib olishi va shunga ko'ra, ijro etish uslubini tanlashda yordam berishi lozim.

Ovoz yillar davomida xonandaning imkoniyat doirasida o'z-o'zidan, ya'ni ashula o'rganish jarayonida asta-sekin shakllanib, o'z yo'lini, pardasini topa boradi. An'anaviy ijrochilikda nola qochirimlar, nimpardalar ustida juda ko'p yillar ishlash mobaynida haqiqiy o'zbekona ovoz yuzaga keladi. Ustozlar: "Bitta hofiz, xonanda 15-20 yilda yetuk ashulachi bo'lib yetishadi" – deb aytishadi.[11] Shu bois ovozni, avvalo, individual tarbiyalash juda muhim. Saboq jarayonida jo'rovozlik ijro yo'llarini shakllantirish esa o'zlashtirilgan mahorat darajasida o'zini namoyon etadi. Jo'rovozlik yoki ansambl bo'lib ijro etishning ijobiy tomonlari xonandada professionalizmni shakllantiradi.

**Tasavvur** – "Narsa va hodisalar, holatlarni, voqelik obrazlarini eslash, shuningdek, ijodiy xayol surish jarayoni. Xotira shaklida ham namoyon bo'ladi. Tasavvur ham o'tmishni, ham kelajakni o'zida mujassamlashtiradi, umumlashgan xususiyat kasb etadi. Tasavvur bilan tafakkurning hamkorligidagi munosabatlari yangilik unsurlarini paydo bo'lishini, ijodiy xayol timsollari vujudga

[11] K.Bo'rieva, "An'anaviy xonandalik" (ayollar ovozlari uchun).-T., 2008-yil. 4-bet.

kelishini ta'minlab turadi. Bilimlarni o'zlashtirishda, kasbiy malakalarni egallashda tasavvur muhim ahamiyatga ega"[12].

Tasavvurga berilgan bu ta'rif musiqa san'ati sohalari uchun ham mos. San'atkorning nimani ijro etish, qanday ijro etish bo'yicha bor taassurotlarini eslash va uni o'z talqini uchun tasavvur etishi, oxir oqibat uning ijrosini belgilab beradi. Xonanda biron-bir ashulani ijro etishi uchun asarning tovushli obrazini tasavvur qilishi kerak. Bu obraz xonandada kerakli harakatni uyg'otadi. Xonanda intiladi. Tasavvuridagi ovozni, ohangni chiqarishga harakat qiladi. Chunki tasavvur qilganimizda biz ongimizda yangi ohangni, ijroni, talqinni, bezak va shunga o'xshagan musiqiy omillarni, g'oyalarni yaratamiz. "Ijrochilik faoliyati ijodiy tasavvur bilan chambarchas bog'liqdir. Vokal musiqasida asarning matni obraz yaratishda yordam beradi. Yosh xonandada tasavvur qilishni talab qilib, uni rivojlantirish zarur"[13]. Tasavvur orqali har bir xonanda o'zining nimalarga qodirligini va imkoniyatlarini ham bilib olishi mumkin.

Bu, avvalo, xonandaning asar tanlashiga asos bo'lsa, uning ijro jarayonida qanday ijro usulini qo'llashi, ijro maktabiga asoslanishi va pirovardida qay usulda talqin etishini belgilovchi jarayonni aniqlash uchun zamin bo'ladi. Lekin bunga xonandaning aniq tasavvuridagi asosi bo'lishi lozim. Asos esa, uning mumtoz musiqa namunalarining atoqli san'atkorlar tomonidan aytilgan ijrolarini tinglagan bo'lishi bilan bog'liq. Shuning uchun xonandalar asarni ijro etishdan oldin uning bir qator ijrosini o'zlashtirishlari lozim. Har bir ustozning ijrosida o'zining ijro uslubi bilan bog'liq jihatlar mujassam bo'ladi. Ularni ilg'ab olish va shunga mos talqin etish uchun xonandaning tasavvur xususiyati bilimiga yarasha imkon tug'diradi. Shu bois, tasavvurda o'tmish va kelajak uyg'unlashadi, deb qayd etiladi.

Xonanda uchun tasavvurning o'zi kamlik qiladi. Albatta, unga tafakkur qo'shilishi yaxshi natijalarni namoyon etishi mumkin. Avvalambor, xonandaning tasavvuridagi ohangni to'g'ri talqin etish bo'lsa, ikkinchidan, unga tafakkuri orqali ijodiy munosabatda bo'lishiga imkon yaratadi. Xullas, tasavvur xonandaning kasbga xos ta'lim olishida, ijroviy malakalarni egallashda va bu jihatni

---

[12] O'z ME T harfi, 147 bet.

[13] G.Muxamedova. Xonandalik uslubiyati asoslari.-T., 2007. 16-bet.

rovojlantirishida katta yordam beradi. Lekin, qayd etish joizki, tasavvur inson tafakkurida turli ko'rinishda qaror topgan. Buni, albatta, xonandaning muayyan holatni, asarni, ohangni va h.k.larni idroklash darajasi bilan izohlash mumkin.

**Idrok** – "Tirik organizmning ma'lum ma'lumotlarni qabul qilib, qayta ishlash jarayoni; organizmga ob'ektiv reallikni aks ettirish va tashqi olamdagi yangidan-yangi vaziyatlarni baholab, shunga yarasha harakat qilish imkonini beradi. Idrok ongning, miyaning ijodiy jarayonidir"[14].

Sodda qilib aytganda, idrok insonning axborotlarni qabul qilish va tushunish darajalarini aks ettiradi. Ya'ni inson ongida borliqni aks ettiruvchi murakkab jarayondir. Idrok jarayonida kishining tajribasi, bilim, abstrakt tafakkurning faoliyati va boshqalar ham ishtirok etadi. Shuning uchun kishilar o'z xususiyatlariga qarab har xil idrok qiladilar. Har bir kishi idrok qilishda narsalarni, borliqni yoki voqealarni solishtirishi, taqqoslab ko'rishi, fahmlashi va ular haqida ma'lum xulosalar chiqarishi mumkin. Oxir-oqibat ongli ravishda idrok etadi. Masalan, musiqadan bilimi yo'q yoki xonandalikda uquvi bo'lmagan qo'shiqchining maqom namunalaridan birini idrok qilishi mutaxassis xonandaning idrokiga qaraganda tor va yuzaki bo'ladi. Idrokning muhim xususiyatlaridan yana biri barqarorligidadir. Inson bir vaqtda idrok qilgan narsasini o'z xotirasida saqlab qolish va uni qayta tiklash qobiliyatiga ega. Muayyan bir kuyni yoki ohangni qayta tiklangan timsoli idrok jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Idrokning xususiyati ko'p jihatdan hissiy kechinmalarga (shodlik, g'amgin, hijron, motam va h.k.) ham bog'liq. Shu bois insonning ta'biga xos musiqa ijro etilishi maqsadga muvofiq. Aks holda, kayfiyati bo'lmagan shinavanda yoki shogird mukammal ijroni ham jo'n qabul qilishi mumkin. Asarning mohiyatini tushunish uchun uning kayfiyati bo'lmaydi va idrok etish darajasi juda past bo'ladi, bunga e'tibor ham qaratmaydi. Kayfiyati chog' paytda tinglayotgan asarini butunlay o'zgacha qabul qiladi. Ana shu jarayon shogirdning idrokini tafakkur bilan

---

[14] O'zME, I harfi, 55-bet.

bog'langanligini bildiradi. Asarga ijodiy munosabatda bo'lish mezonini belgilab beradi.

An'anaviy xonandalik yoki sozandalikda kasbiylik nuqtai nazaridan kuchli idrok etish qobiliyatiga ega bo'lish lozim. Qayd etish kerakki, musiqa ijrochilari ayni bir vaqtning o'zida beshta, oltita amal vazifalarini olib boradilar. Ularning, avvalo, alohidalik mezonlarini mustahkamlash kerak bo'lsa, ijroda chiroyli uyg'unligini ta'minlab berishga to'g'ri keladi. Bu jihatlar xonandalik yoki sozandalik kasbining ahamiyatli mezonlari bo'lgani sababli ta'lim jarayonida kasbning talablari sifatida amalga oshirib, rivojlantirib kelinadi. Lekin barchada ham bu unsurlarning hammasi munosib o'rin topmagan. Masalan, so'zni yodda saqlash va uni xonish davomida unutmaslik. Bir ko'rinishda xonanda uchun oddiy tuyulsa-da, so'zlarni unutish hollari ham ko'p uchrab turadi. Oxirgi paytlarda qog'ozga qarab kuylash holatlari ham kuzatilmoqda. Bu, albatta, xonandalik madaniyatiga putur yetkazadi. Xonanda asar so'zlarini ma'nolar tizimida yaxshi idroklab olsa, xonishda hech qachon unutmaydi.

Ansambl ijrochiligida xonandalar idrokiga yana ikki mas'uliyat qo'shiladi. Birinchisi, jo'rovozini tinglab idroklash bo'lsa, ikkinchisi unga mutanosib xonishni saqlashdir. Bu bir ko'rinishda oddiy tuyulsada, xonish jarayonida o'zining ahamiyatli tomonlarini namoyon etadi. Bitta e'tiborsizlik xonishda turli-tuman g'alizliklarga olib keladi.

**Tafakkur** – "Inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, ob'ektiv voqelikni ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi"[15].

Tafakkur san'atkorning asosiy faoliyat olib boruvchi quroli hisoblanadi. Har bir ijro qanday asar bo'lishidan qat'i nazar, san'at darajasida yuksak bo'lishi lozim. Bunda asosiy mezon tafakkur ekanligini yuqorida aytib o'tdik. San'atkor, xususan, xonanda har

---

[15] O'zME, T harfi, 164-bet.

bir ijro etadigan asarini to‘liq anglashi, uning mazmunan, shaklan va ijroviy jihatlarini idroklab olishi juda muhim. Ayniqsa, mumtoz musiqaning o‘z ohang jarayoni, rivojlanish bosqichlari, usul tizimi va ularni asarga mutanosib saqlash – barchasi xonandaning asarni ongli ravishda o‘zlashtirishi lozimligini e’tirof etadi. Asarni san’at darajasida ijro etish uchun xonanda muayyan bir asarni o‘rganish jarayonida mulohaza qiladi. Uni asl holicha o‘zlashtirishga urunadi. So‘ng asarni ijro jarayonida fikr qiladi va turli g‘oyalar, ya’ni ijro uslublardan unumli foydalanishga harakat qiladi. Agar asarga ijodiy munosabat bilan yondashsa, turli xulosalar bilan o‘z talqinini yaratishga urinib ko‘radi. Bu jarayonning barchasi xonandaning asarga nisbatan tafakkurini shakllantiradi va muayyan yutuqlarga erishish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Asar ijrosida xonanda tafakkurida bir qator amallarni uyg‘un holda olib borishi lozim. Xususan, xonanda ijrosida so‘z va ohang kuy bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Xonanda tafakkur orqali ma’lum asarni so‘z matni va ohangini umumlashtirib, bevosita va bilvosita tarannum etadi (aytadi, kuylaydi va h.k.).

**Slux** – tinglash qobiliyati. Xonanda va sozandalar, umuman olganda, musiqa san’ati namoyandalari uchun eng muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. “Sezgi turlarining eng muhim jihatlaridan biri, – deb yozadi Galina Muxamedova, – eshitish. Sezgining rivojlanishi bilan birga eshitish qobiliyati o‘sib boradi. Ovoz apparati faqat eshitish orqali qabul qilingan hodisalarnigina uzatishi mumkin. Ashulachilik apparati bilan quloq yaxlit tizimdir. Ovoz apparati eshitish orqali nimani qabul etsa, aynan o‘shani ifodalaydi”[16]. Darhaqiqat, sezgilarning ham qarab rivojlangan va rivojlanmagan ko‘rinishlari bo‘lishi muqarrar.

Odatda, sluxi bo‘lmaganlarni musiqa tarbiyasiga olinmaydi. Slux musiqaning miyasi, ongi deyish mumkin. Chunki har qanday musiqa san’ati namoyandasi musiqa ijrosi jarayonida bir qator musiqa tarmoqlarini bir paytda eslab qolgan bo‘lishi va uni ijroda qo‘llashi, shu bilan birga, uni musiqaning pardalari tizimi doirasida idroklagan holda talqin etishi lozim. Mana shu jarayonlarning har

[16] G.Muxamedova. Xonandalik uslubiyati asoslari.-T., 2007-y. 12-13-bet.

biri musiqiy slux bilan bog'liq ekanligini unutmaslik lozim. Chunki yaxshi kuylash uchun uni avvalo yaxshi tinglash, eshitishni bilish kerak.

Slux, ya'ni tinglash qobiliyati bo'lgan shaxslarning musiqiy qobiliyati ham boshqalarga nisbatan faolroq va talabchanroq bo'lishini e'tirof etishimiz lozim. Musiqada tinglash yoki eshitish faqat tovush balandligini ajratib olish degani emas, balki ohangni, kuyni, asardagi barcha jarayonlarni eshitish. To'g'ri, eshitish ham yaxshi. Lekin eshitganini ovozda to'g'ri va aniq qaytara olish xonandalarga xos xususiyatlardan biridir. Xonandada aytish ko'nikmalari shakllangan va rivojlangan sari xonandalarga xos eshitish qobiliyati ham sekin-asta mukammallashib boradi. Bu xislat xonandalar uchun zarurdir. Agar xonandada bunday jihat bo'lmasa yoki xonandalik eshitish qobiliyati rivojlanmasa, bu ijobiy natijaga olib bormaydi.

Musiqaning toza ijro etilishi ijrochilik amaliyotining muhim jihatlaridan hisoblanadi. Asarning tarannum etuvchi tovushlarini va tovushlar munosabatlarida yuzaga keladigan ohanglarni toza ijro etish lozim. Har bir asar o'zining musiqiy tovushqatori asosidagi lad bo'yicha harakatlanadi. Gap ana shu harakatning toza tarannumi xususidadir. Slux esa xonanda yoki sozandaga ana shu tovushlar munosabatidagi oraliqlarni toza ifoda etish uchun asosiy xizmatni bajaradi. Ijrochi unutmasligi kerakki, tinglovchi ham xuddi shunday sluxga ega va ular ham kuyning tozalik darajalarini his etadilar va ijrochidan shuni kutadilar. Shu bois xonanda va sozandalar uchun musiqa nazariyasining asosiy qonuniyatlarini o'zlashtirishlari, bilishlari va ijrolarida qo'llay olishlari juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijrochilik amaliyotida uch xil slux mavjud. Shulardan eng yuqori slux –mutlaq sluxga ega bo'lganlar hisoblanadi. Mutlaq slux kamdan-kam odamlarda uchraydi. Aksariyat insonlar nisbiy sluxga egadirlar. Buning ham o'ziga xos darajalari mavjud. Ya'ni eng past va eng yuqori. Sluxning uchinchi turi: barcha insonlarga xos ichki sluxdir. Bu, albatta, xonandalarga oldindan his etib, idroklagan holda ijro etayotgan asarlarini to'g'ri talqin etish uchun zarur bo'lgan xususiyatlar qatoriga kiradi.

**Es (xotira)** — "Tor ma'noda aql, ong so'zlarining ma'nodoshi. Idrok qilingan narsa va hodisalarni xotirada saqlash qobiliyati"[17]. Xonandalik san'ati amaliyotda "xotira" deb yuritiladi. Aytish kerakki, hofizlik "esda saqlash" so'zidan olingan. Xonandalar uchun es suv va havodek zarur. Xoh u xonanda bo'lsin yoki sozanda: es uning ijrosida eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlaridan biri sifatida gavdalanadi. Har bir xonandaning mukammal ijro etishi, ijod qilishi uchun, albatta, uning xotirasi yaxshi rivojlangan bo'lishi lozim. Xotira – bu ruhiyatning eslab, saqlab va qaytarib berish xususiyatidir[18]. Maqom ijrochiligida o'zining betakror ovozi va ijrosi bilan xalqimiz dilidan joy olgan taniqli hofiz, O'zbekiston xalq artisti Orif Alimaxsumov bir tinglagan asarini to'laligicha qaytarib ijro etish qobiliyatiga ega bo'lgan. Bu xislatini ustoz Yunus Rajabiy ham qadrlagan. Maqom ijrochilarida bunday xususiyatni rivojlantirish yaxshi natijalar beradi. Chunki xonandalikda es bilan bog'liq jarayonlar juda ko'p.

Xonandalik bir qator sohalarni o'zida uyg'unlashtirgan. Adabiyot (she'riyat va she'riyat bilan bog'liq qonuniyatlar), nutq (sheva, talaffuz), ijrochilik vositalari (ovoz, cholg'u), ijro (ohang, kuy, shakl, usul va h.k.) kabilar shular jumlasidandir. Xususan, xonanda asarni ijro etish jarayonida bir qator, bir-biri bilan bog'liq tomonlarni xonishda uyg'unlashtirib talqin etadi. Xonandaning mukammalligi va mohirligi ham shunda ko'rinib turadi. Ulardan biror tarmog'i oqsab qolsa, xonishning nuqsoni bilinib qoladi. Demak, xonanda asarni o'zlashtirish jarayonida bularning barchasini qunt bilan o'zlashtirishi maqsadga muvofiq. Xususan, xonanda xonish jarayonida cholg'u chalishi, asar kuyining har bir zarbiga e'tibor berib, usul ruknlarini saqlashi lozim. Bu, albatta, xonandaning ta'lim jarayonida asarning talqinida usulni saqlash qobiliyatini mustahkamlash bilan bog'liq bo'ladi.

Ashula aytishda usul bilan benazir sayqallarni qo'llash, ana shu asosda usulni saqlab, unga turli jilolar berish ko'nikmalarini hosil qilishi mumkin. Mumtoz musiqa ijrochiligida usulga pishiq bo'lish va unga rioya qilib, saqlab aytish katta yutuq hisoblanadi. Chunki

---

[17] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, E harfi, 244-bet.
[18] G.Muxamedova. Xonandalik uslubiyati asoslari.-T., 2007-y. 15-bet.

maqom usullarining o'zida ham murakkablik bor bo'lib, ularning ijrosi ancha mukammal va mushkuldir.

Xonishning uyg'unligidagi yana bir ahamiyatli tomoni ashulaning so'zi bilan bog'liq. Asarda so'zni musiqiy ohang g'oyasidan chetlanmasdan, aksincha, unga tayanib va ohangni boyitib ijro etish lozim. Buning uchun xonanda ashulaga asos bo'lgan so'z matnini yaxshi yodlagan va idroklagan bo'lsa, yaxshi natijalarga erishadi. Chunki bunda o'ziga xos uchta usul birlashtirib ijro etiladi: she'r vazni, kuy usuli va doira usul. Ularni ashula mazmun-mohiyati doirasida bir me'yorda saqlash lozim. Xonanda xonish paytida mana shu tomonlarning barchasini bir vaqtda, ashulaga uyg'un holda ijro etadi.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha omillarni xonanda bir vaqtda bajaradi. Hamma gap ularni ijroda chiroyli o'rniga ega bo'lishi va talqinning go'zallashtirishidadir. Xonanda kuylash jarayonida unutib qoldiradigan tomonlari bo'ladi. Lekin muntazam mashq va tinglash jarayoni har qanday xonandada talqinni mukammal holatga keltirish ko'nikmalarini hosil qiladi. Shu bois xonandaning xonishdagi barcha tarmoqlarni alohida o'zlashtirib eslab qolishi va xotirasiga jamlashga e'tibor berishi o'zlashtirish jarayoniga katta ta'sir etadi, mukammal ijro uchun xizmat qiladi. Xonandalikda zarur hisoblangan bunday tarmoqlarni, xonish uchun kerakli amallarni bilish va xonishda to'la ifoda etish juda katta ahamiyatga ega.

**Talqin** – musiqa ijrochiligida xonandaning shaxsiy ijrosiga nisbatan ishlatiladigan ibora. Har bir xonanda yoki sozandaning ijrosi uning talqini hisoblanadi. Avvalo, xonanda an'anaviy xonandalikda mavjud bo'lgan ibratli talqinlarni tinglab o'zlashtirishi yaxshi natijalar beradi. Shaxsiy talqinning samarasi ham aynan ustozlar talqinini yaxshi o'zlashtirish oqibatida shakllanib boradi. Shaxsiy talqin esa ijro amaliyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi omildir. Mumtoz musiqa talqini ham barcha sohalar kabi o'zining bir qator qoidalaridan tashkil topgan. Ularni asosliligi va umumiyligi ijro amaliyotida o'zini ko'rsatib boradi. Xususan, har bir xonandaning shaxsiy jihatlari bilan bog'liq unsurlari ham talqin doirasida o'z natijasini ko'rsatib boradi. An'anaviy xonandalikning amaliyotda yuzaga kelgan va xonanda uchun zarur hisoblangan bir qator jihatlari mavjud.

Xonanda talqinining amaliyotida muhim hisoblangan jihatlar:

- tinglash bilan muntazam shug'ullanish;
- asar so'z-matnlari va ohanglarini yod olish ko'nikmalarini rivojlantirib borish;
- ohang va so'zlarni idroklagan holda talqin etish ko'nikmasi;
- aniq talaffuz;
- ravon va mazmunli talqinga erishish;
- musiqani tinglash va ijroda unga ergashish;
- ovozni to'g'ri ishlatish;
- jo'rovozni tinglash va birgalikda talqin etish, ya'ni hamnafasni sezib ijro etish;
- asarga ijodiy munosabatda bo'lish.

Musiqashunos olim S.Begmatov "Hofizlik san'ati" kitobida bu masalani quyidagicha ta'riflab beradi: "Ijrochilik san'ati ovoz va sozlar talqiniga xos turli xususiyatlarga boy sohadir. Falsafiy imkoniyatlarga ega xalq ijrochiligi erkin talqinga asoslanganki, har bir musiqachi asar talqiniga imkoniyati doirasida ijodiy yondashadi hamda o'zining behisob va betakror mo'jizasini namoyon etadi"[19]. Bu, albatta, har bir xonanda o'zining shaxsiy ijro talqiniga erishish yo'lidagi va amaliyotida shakllantiradigan xususiyatlar hisoblanadi. Qolaversa, yuqorida keltirilgan jihatlarni o'zlashtirishning yo'llari va erishiladigan natijadir.

Har bir xonanda o'z ijrosiga ijodiy yondashadi. Bu, albatta, o'zbek xalq ijrochiligiga xos. Qolaversa, xonanda ijro etayotgan asariga bir yangilik kiritishga harakat qiladi. Mumtoz musiqada, avvalo, asarni asl holicha o'zlashtirish lozim. Uning mukammal talqiniga erishish uchun harakat qilinadi. Shaxsiy talqinini shakllantirish jarayonida esa turli ijrolarni o'rganib, ularning negizida asarning yangi variantlarini yaratishga urinib ko'radi. Xonanda yuqorida keltirilgan talqinga xos xususiyatlarni mukammal egallagandan so'ng, shunga yarasha bilimdan bahramand bo'lgach, ijro talqinida ustozona munosabatlar ko'rina boshlaydi. Ana shular xonandaning shaxsiy talqini bilan bog'liq jihatlar sifatida ijro yo'lini belgilab beradi.

[19] S.Begmatov, "Hofizlik san'ati".-T.2007-y. 19-bet.

Xonanda uchun bu jihatlar juda muhim va saboq jarayonida ustozlardan olingan bilim, yaxshi natijalar berishi muqarrar. S.Begmatov yozganidek: "Har bir ijrochining pardani to'g'ri his etishi va talqin etishi uning ma'naviy dunyosi, bilim va amaliy ijro ko'nikmalari bilan bog'liq. Hofizning ma'naviy dunyosi qanchalik boy bo'lsa, uning ijrosi shunchalik jozibali, sof va rang-barang bo'ladi. U qanchalik ustozlar va meros an'analarini o'zlashtirgan bo'lsa va boy tajriba orttirsa, talqin etayotgan musiqiy ohanglarini shunchalik ishonarli, chuqur tushungan holda, teran his etib, barcha imkoniyatlari doirasida mazmunli tarannum (ifoda) etadi"[20].

## YOSH XONANDALARNI ANSAMBL IJROCHILIGIGA TAYYORLASH JARAYONINING KASBIY OMILLARI

Yuqorida biz xonandalik uchun zarur bo'lgan jihatlar xususida, talaba-o'quvchilar xonandalik kasbini tanlashda qanday tomonlarini e'tiborga olishlari borasida fikr yuritdik. Xonandalik san'ati xalqonaligi bilan barchaga tanish bo'lsada, professional darajada kasbni egallashda yuqorida keltirilgan jihatlarni ustozlar sabog'i orqali o'zlashtirish juda muhim. Xonandalarning jo'rnavozlikda, ayniqsa, ansambl bo'lib ijro etishlarida ustoz-shogird saboqlari, ustozlar an'anasini aynan pedagogik yo'sinda o'zlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Musiqa – unda mujassam topgan ohang bilan qadrlidir. Ohangni esa tarannum etish lozim. Tarannum etishda faqat quruq ovoz emas, balki yuqorida keltirilgan ijroviy unsurlarga ega bo'lish zarur. Musiqa ham barcha sohalar kabi o'z qonuniyatlariga ega. Shular qatorida an'anaviy musiqa ijrochiligi amaliyotida ansambl bo'lib ijro etishning ham o'ziga xos jihatlari mavjud. Hozirgi kunda maqom ijrochiligi san'ati yosh avlodga oliy va o'rta maxsus kasb-hunar maskanlarida o'rgatilmoqda. Yosh avlod ajdodlar tomonidan yaratilib, og'izdan og'izga o'tib kelayotgan ulkan mumtoz musiqa merosining ustozona talqinlarini mukammal o'rganishlari uchun katta imkoniyatlar mavjud.

---

[20] Shu kitob, 23-bet.

Ta'lim jarayonining amaliyotini bilimdon ustozlar amalga oshirib kelayotgan bo'lsalar, ularga dasturulamal bo'lib xizmat qilayotgan nazariy ma'lumotlar, musiqiy risolalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalarning o'rni beqiyos. Chunki xonandalikda insonning barcha a'zolari faoliyatining ahamiyati bor. Shu bois qo'llanmada ustozlarning saboqlari, tajribalari bilan birga an'anaviy xonandalik bo'yicha tadqiqot olib borgan va xonandalik san'atining turli jihatlarini ochib bergan musiqashunos olimlar, xonandalikni kasb etgan ustoz san'atkorlarning izlanishlaridan keng foydalandik. Ularning fikrlaridan ansambl ijrosi uchun zarur bo'lgan jihatlarni ochib berishga urindik. Xususan, Yu.Rajabiy, I.Rajabov, O'.Rasulov[21], S.Begmatov[22], H.Isroilovalarning[23] yosh xonandalarni shakllantirish uchun bayon etgan fikrlaridan ilhomlandik. Buning sabablaridan biri: an'anaviy musiqaning jamoa bo'lib ijro etilishi o'zining badiiy imkoniyatlarini namoyon etib kelgan. Zamon yoshlarining ansamblli ijroni munosib o'zlashtirishlari davr taqozosi va hozirgi ustozlar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. An'anaviy xonandalikda ansambl bo'lib xonish qilishning ham o'ziga xos jihatlari mavjud. Xonandalarning ansambl bo'lib ijro etishlari uchun saboq beruvchi ustozlar va ta'lim oluvchi talabalar bir qator jihatlarga e'tiborli bo'lishlari talab etiladi. U ham bo'lsa, ansambl bo'lib ijro etish ko'nikmalaridir.

Avvalo, ustozning asosiy vazifasi: xonandalar ansamblini tuzishda jamoaviy ijroga xos va mos ovozlarni tanlash. Shuningdek, ta'lim jarayonida jamoaning ovozlarini inobatga olgan holda munosib taqsimlash zarur. Talabalarda jo'rnavozlik ijro ko'nikmalarini shakllantirishda bir qator amallarga rioya qilish yaxshi natijalarga olib keladi. Jumladan, ularning musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish, bir-birini tinglab jo'r bo'lish, musiqiy ohangni, asarning asosiy mavzusini idroklash, ohang, usul va so'z talqinini iloji boricha bir-biriga uyg'un holda talqin etishga erishish. E'tibor berish zarur bo'lgan omillardan yana biri asarni ehtirosli talqin etishdir. Musiqa talqinini oxirgi ko'rinishi, albatta, ijrochi va

---

[21] O'.Rasulov, "An'anaviy xonandalik o'qitish metodikasi".-T., 2007.
[22] S.Begmatov, "Hofizlik san'ati".-T., "Musiqa". 2009.
[23] H.Isroilova, "Xonandalik san'ati".-T., 2008.

tinglovchining o‘ziga xos muloqoti. Xonanda talqin etadi, tinglovchi qabul qiladi.

An’anaviy musiqa ijrochisini tarbiyalash, kasb jihatidan rivojlantirishning turli qirralari mavjud. Ustozlik (pedagogik), ruhiy (psixologik), badiiy-estetik, ijrochilik va h.k. Xonandalik sohasida ham bu jihatlarni professional darajada shakllantirish ahamiyatlidir. Qolaversa, talabaning xonanda sifatida kamol topishiga katta imkon yaratib beradi. Shuning uchun xonanda kasbiy tayyorgarligida, avvalo, xonandalik san’atini bosqichma bosqich egallash, merosni o‘zlashtirish, malaka oshirib borish bilan bog‘liq turli-tuman masalalarni nazariy va amaliy o‘zlashtirib borishi lozim. Shuningdek, ta’lim dasturini muntazam tarzda takomillashtirib borish, teranlashtirish, davr talabi bo‘lgan zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish kerak. Albatta, amaliy o‘zlashtirish muhim. Buning uchun har qanday xonandaga ijrochilik faoliyati hal qiluvchi bosqich vazifasini o‘taydi.

Xonandalarning ansambl bo‘lib ijro etish amaliyotida sahnaviy ijrolar alohida ahamiyatga ega. Jamoaviy ijroning o‘ziga xos sahnaviy qoidalari mavjud. Avvalo tartibli ijro bo‘lishi uchun xonandalarda madaniy, axloqiy, ruhiy holatlarning sog‘lom bo‘lishi va aqlan munosabatda bo‘lishlari yaxshi natijalarga olib keladi. Bunda xonandalarning jo‘rovozliklaridagi ijroviy tajriba qo‘l keladi. Buning uchun ansambl ishtirokchilari ustozlarining sabog‘ini yaxshi o‘zlashtirishlari, ustoz shogirdlarini ruhan to‘g‘ri sozlab, asarni mukammal o‘zlashtirishlarini ta’minlab berishi lozim. Sahna yosh xonandalarni har tomonlama tarbiyalaydi. Ijroga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi. Xonanda tinglovchi oldidagi mas’uliyatni idroklay boshlaydi. O‘z ijrolari bilan tinglovchini maftun etish hissi kuchayadi. Maftunkorlikni sezgandan keyin o‘zgacha mas’uliyat bilan yondashish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi. Eng muhimi, olgan saboqlari negizida mukammal ijro etishga harakat qiladi.

Buning uchun yoshlardan kuchli iroda talab etiladi. Ansambl xonandalari shuni anglashlari lozimki, xonish paytida tinglovchilarga asar mohiyatini to‘laqonli yetkazib berishlari zarur. Musiqiy namunaning, ashulaning g‘oyaviy mazmunini ochib berishlari kerak. Shuning uchun ular ishtirokida muntazam tarzda tinglovchi bilan muloqotni hosil qiladigan mavzuli namoyishlar

(konsertlar) tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tinglovchilar bilan bevosita uchrashuvlar, muloqotlar, konsertlar (akademik, texnik va h.k.) xonandalikning asl mohiyatini anglab olish imkoniyatini beradi. Ushbu o'ziga xos muloqotlar aynan ustozlardan saboq olish davrida haqiqiy tajriba maydoni hisoblanadi. Ustozlar nazoratidagi o'zlashtirish har tomonlama mazmunli, ma'noli va benuqson bo'lishi begumon.

Ansambl bo'lib ijro etish amaliyoti bo'lg'usi xonandalar musiqa san'ati namoyandasi uchun zarur bo'lgan barcha jihatlarni o'zlashtirishlariga imkoniyatdir. Avvalambor, ularda xonandalikka bo'lgan ishtiyoq o'zini namoyon etadi va jamoaviy ijroga shoshiladi. Ikkinchidan, aytish usulbining yakka xonandalik va ansambl bo'lib ijro etish sirlarini birgalikda o'zlashtiradi. Jamoaning har birida o'z kamchiligi bo'lishi begumon, ularni bartaraf qilishda ustozlarning o'gitlari darkor. Bu xonandalik mahoratini oshirishdir. Uchinchidan, jo'rnavozlik xonandaga o'zgacha mas'uliyat yuklaydi. Jo'rnavozlik yakka xonandalikdan mushkulroq ekanligi xonishda namoyon bo'ladi. Doimo hushyor bo'lish, xonishda ichki eshitish mas'uliyatini oshirish, tinglab va asarning ohangidan chiqmasdan, so'zlarni adashtirmasdan g'azal va ohang rukniga mos holda, jo'rnovozi bilan birgalikda tarannum etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bularning barchasi yosh xonandaning shakllanish davrida ustozona, ya'ni ovoz, tasavvur, idrok, slux (tinglash qobiliyati), es (hofizasining kuchi) va talqin, so'z va ohanglarni yod olish, aniq talaffuz, ravon va mazmunli talqin etish, musiqani tinglash va ijroda unga ergashish, ovozni to'g'ri ishlatish, jo'rovozni tinglash va birgalikda talqin etish, ya'ni hamnafasni sezib ijro etish, asarga ijodiy munosabatda bo'lish kabi ijroviy xususiyat va jihatlarning xonanda uchun ahamiyatli tomonlarini uqtirib, xonandalik faoliyatida munosib qo'llashni o'rgatadi.

Ansambl bo'lib ijro etish san'ati ijrochilik amaliyotining go'zal namunasidir. Keltirilgan xususiyatlarni ilm bilan idroklash saboq davrining amallari hisoblanadi. Ansambl qatnashchilari bo'lgan yosh xonandalarning saboq mashqlari ham o'ziga xos bo'ladi. Har bir ustoz o'z bilganidek mashg'ulotlar o'tkazadi. Lekin ansambl bo'lib ijro etishning umumiy qonun-qoidalari ham mavjud. Bunga pedagogik munosabatda bo'lish lozim. Xususan: avvalo,

xonandalarning ijroviy, nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim; ijro uchun mos asar tanlash (ijro dasturiga amal qilish, ansambl ijroviy imkoniyatlarini inobatga olish va rivojlanishni ta’minlash); asar ustida ishlash, asarning musiqaviy ohang va so‘z matnini yodlatish, matnni sharhlab tushuntirish; g‘azal so‘zlarini to‘g‘ri talaffuz ettirish; maqomlarning parda tartibi bilan tanishtirish va ijro etilayotgan asarning qaysi lad(lar) asosida ijro etilishini ko‘rsatib berish va h.k.

Ansamblni xonishga tayyorlash ham o‘ziga xos jarayondir. Barcha musiqa sohasi kabi an’anaviy ansambl ijrochiligida ham xonandalarni xonishga tayyorlash zarur. Avvalo, o‘rganilishi lozim bo‘lgan asarning musiqasi va so‘z-matni tahlil etilishi lozim. Saboq jarayonida ashula matnini xonandalarga bir necha marotaba qaytarish lozim. Xonandalar matnni she’r qilib o‘qishlari kerak. She’r qilib o‘qiyotgan paytda so‘zlardagi harf va bo‘g‘inlarni to‘g‘ri talaffuz etilishini doimo nazorat qilib turish ma’qul. Shundan so‘ng ovozlarni sozlash, qizdirish kabi ishlar amalga oshiriladi. Ovoz sozlashda qabul qilingan mashqlardan foydalaniladi. Ovozni sozlash mashqlarini o‘tash ansambl qatnashchilarining barchasiga tegishlidir. Ayol ovozlariga, erkak ovozlariga xos mashqlar avvalo birgalikda, keyin alohida amalga oshirilishi lozim. Xonandalar uchun ovozni asta-sekin qizdiradigan, ohangi barcha ovozlarga birdek ta’sir etadigan, barcha ovozlar uchun birdek mushkullikdagi mashqlarni tanlash maqsadga muvofiq. Avvalo, xonishga tayyorlash va qizdirishning oddiy usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda xonandalarning oddiy tovushqator gammalarini ikkiga bo‘lib yoki to‘laligicha kuylash xonandalik amaliyotida keng qo‘llaniladigan intervallarni kuylash, yaxshi natijalarga olib keladi. Eng muhimi, xonandalarda ovoz qizdirish bilan birga ushbu intervallarni doimo toza va aniq ijro etish ko‘nikmalari shakllanadi.

O‘qituvchi mashqlarni o‘tkazish jarayonida talabalarning nafas olish va undan ovoz tarannum etish uchun maqsadli foydalanishlariga katta e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Mumtoz xonandalikdagi muhim jarayonlardan biri – nafas hisoblanadi. Shu bois xonandalar uchun ovoz mashqlarini o‘tkazishda “Chorgoh” ashulasining boshlang‘ich hangidan boshlash maqsadga muvofiq.

Chorgoh ashulasi boshlang'ich hangining xonandalar uchun qulaylik jihatlari ko'p. Avvalo, asarning ohangi xonandani o'ylashga majbur etadi va shunga xos talqin etishga undaydi. Xonandada mustaqillik ko'nikmalari shakllanishiga da'vat qiladi. Ikkinchidan, asarning ohangi tanish, uchinchidan, ijro uchun qulay.

Talabalarga mumtoz ashulalar va maqom namunalaridan tayyorlangan ovoz mashqlarini qo'shib mashg'ulot o'tkazish xonandalarni saboq jarayoniga har tomonlama tayyorlash va xonishga sozlash jarayonini mustahkamlaydi. Avvalo, ustoz pedagog o'zining uslubiga xos ohanglarni tanlashi lozim bo'ladi. Lekin maqomlar ta'limotida maqom namunalaridan olingan mashqlar katta natijalarga olib keladi. Jumladan, "Segoh" maqomiga xos asar o'zlashtirilishi lozim. Bu borada quyidagicha mashq tartibini tuzish tavsiya etiladi: **Misol:** "Segoh" maqomi hanglaridan tuzilgan mashq.

Moderato




Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'rgatayotgan asar ohangiga yaqin bo'lgan kuylar bilan ovoz mashqlarini o'tkazishi lozim. Har bir o'qituvchi talabalarning ijro dasturlari asosida mashq tanlashlari mumkin. Mashqlar talabalarning ovozlarini qizdirish, rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi muhim. Maqom ijrochiligida bunday mashqlarni har bir namunalarda mavjud bo'lgan hanglardan tuzish mumkin. Maqom namunalarining hanglari, avvalo, ijro uchun qulay bo'lsa, ikkinchidan, xonandalar eslab qolishlari osonroq. Bunga "Girya 1" ashulasining boshlang'ich hangidan tuzilgan mashq yorqin misol bo'la oladi.

Ansambl xonandalariga "Toshkent irog'i" hanglaridan tuzilgan mashq ham xonandalarning ovozi va ko'nikmasi uchun yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Bu mashqlar o'zlashtirilishi lozim bo'lgan asarga xonandalarni olib kiradi va tayyorlaydi. Xonandaning xonishdagi asosiy vazifasi asar g'oyasini to'laqonli ravishda ochib berishdan iborat. Demak, mashq jarayoni ham xonandalardan asarni mukammal o'zlashtirishni talab etadi.

Ansambl bo'lib ijro etishning ana shunday jihatlarini inobatga olgan holda, Shashmaqom tarkibidan o'rin olgan Saraxborlarning birini xonandalar ansambliga o'rgatish jarayonini pedagogik uslublar orqali sharhlashga harakat qilamiz.

## SARAXBORI SEGOH

Segoh maqomi to'liq bo'lgan olti qismli Shashmaqom turkumining beshinchisidir. Yirik shakldagi turkumlardan hisoblangan Segoh maqomining mushkulot va nasr qismlaridan iborat. Nasr amaliyotda "ashula bo'limi" deb ham yuritiladi. Ashula bo'limi ikki guruh sho'balarga bo'lingan, birinchi va ikkinchi guruh sho'balar deb yuritiladi. Bu borada maqomdon olim, mohir sozanda Is'hoq Rajabov o'z kitoblarida uqtirib o'tgan. Barcha xonanda va sozandalar musiqashunos olim Is'hoq Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir"[24] va "Maqomlar"[25] kitobini doimo mutolaa qilib borishlari lozim. Bu kitoblar har bir an'anaviy xonanda va sozanda uchun doimiy qo'llanma bo'lishi lozim. Bu borada I.Rajabov: "Shashmaqomning ashula bo'limlari anchagina murakkab shakldagi sho'balardan tarkib topgan. Ular maqomlarning cholg'u bo'limidagi qismlari birin-ketin ijro etilgandan so'ng turkum tarzida aytiladi. Ashula bo'limlarida tuzilish jihatidan bir-biridan ajralib turadigan ikki xil sho'balar guruhi mavjud. Bulardan birinchisi, Saraxbor, Talqin, Nasr kabi sho'balar va Ufar qismi, ikkinchisiga, asosan, Savt – mo'g'ulcha shaklida tuzilgan sho'balar kiradi. Olti maqomdagi turdosh sho'balar kuy-ohanglari jihatidan har xil

---

[24] I.Rajabov. Maqomlar masalasiga doir,-T., 1963-yil.
[25] I.Rajabov. Maqomlar,-T., 2006-yil.

bo‘lsada, ularning doira usullari bir xildir”[26], – deb, maqom o‘rganuvchilar uchun umumiy ma’lumot keltirgan. Demak, Shashmaqom tarkibidagi bitta maqomni turkumiy tarzda o‘zlashtirgan xonanda yoki sozanda boshqa maqomlarning tarkibi xususida ham oz bo‘lsa-da, tushunchaga ega bo‘lar ekan. Eng muhimi, maqomlarning usul jihatlari o‘zgarmagan holda takrorlanishidir. Sho‘ba nomlari o‘zlariga mansub bo‘lgan maqomlar, ba’zan sho‘balar nomlari bilan qo‘shib ataladi. Masalan, Saraxbori Navo, Nasri Segoh, Talqini Segoh va h.k. Saraxbor usulning nomi, Segoh esa tovushqator-lad asosini anglatadi.

Ansambl xonandalari ijro etishlari lozim bo‘lgan maqom yoki ashulalarning avvalo, mavzusini, ya’ni ohang mag‘zini bilib olishlari darkor. Har bir maqom o‘z mavzusiga ega. Tinglovchilar maqomning ohangida Iroq, Dugoh, Ushshoq yoki Rost ekanini bilib olishadi. Shu bois xonanda ham har bir maqomning xarakteriga xos tegishli ohanglarni o‘zlashtira olishlari lozim.

Segoh maqomining Nasr, ya’ni ashula bo‘limi Saraxbori Segoh sho‘basi bilan boshlanadi va ushbu turkumning boshlovchi asosiy sho‘basi hamda eng yirik kichik turkumi hisoblanadi. Saraxbor iborasining ma’nosi ham “bosh xabar”dir. Unda Segoh maqomining asosiy ohang mag‘zi va uning beqiyos jilvasi o‘z aksini topgan.

Saraxbori Segoh bir qator shoirlarning mumtoz g‘azallari bilan aytiladi. Ushbu namuna Yunus Rajabiy nota yozuviga asoslangan bo‘lib, Alisher Navoiyning “Qildilar” radifli g‘azali bilan aytilgan.

Bag‘rimni tig‘i hajr ila yuz pora qildilar,
To yor ko‘yidin mani ovvora qildilar.

Butkudek erdi vasl ila ko‘nglum jarohati,
Hijron qilichi birla yana yora qildilar.

Mazmuni o‘lmaku oti hijron g‘ami degan,
Yuz ming jafoni jonima yakbora qildilar.

---

[26] I.Rajabov. Maqom asoslari.-T., 1992. 13-sahifa.

Turg‘on yoshim oqidilar ul oy firoqida,
Sobitlarimni kavkabi sayyora qildilar.

Voiz uni surud erur ashg‘oli ayshiga,
Qismat kuyinda oniki, mayxora qildilar.

May tutki jon davridin o‘q tortilar iloj,
Jamiki, charx davrini nazzora qildilar.

Yorab, ne diy alarniki, miskin Navoiyni,
Behushu aqlu bedilu, bechora qildilar.

Xonish qiluvchi ansambl qatnashchilariga saraxbor so‘z matnining ma’nosini tushuntirib berish lozim bo‘ladi. Hazrat Navoiyning har bir g‘azallari turfa ma’nolarni kasb etadi. Bizning tushunchamizda ushbu g‘azalni kuylagan paytda quyidagi ma’nolarini anglagan holda talqin etish maqsadga muvofiqdir. G‘azalning vazni “Muzorai musammani axrabi makfufi maqsur” dir.

Bag‘rimni tig‘i hajr ila yuz pora qildilar,
To yor ko‘yidin mani ovvora qildilar.

Bag‘ri dilimni hijron, ayriliq xanjari, tig‘i bilan yuz poralab, bo‘laklarga qiymalab tashladilar. Yorning ishqida mani necha ovvorayu sarson qildilar. Bu yerda shoir umumiy holatini bayon qilib xabar bermoqda. Ijroda ham tinglovchini ushbu holatga tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

Butkudek erdi vasl ila ko‘nglum jarohati,
Hijron qilichi birla yana yora qildilar.

Birgina visoliga yetishmoq bilan ko‘nglimning jarohati bitib, tuzalardi, ammo hijronning qilichi bilan yana qalbimni yaraladilar. Jarohatining davosini, nima orqali shifo topishini aytib, buni bedavo dard emasligini bildirib, eslatib o‘tmoqda.

Mazmuni o‘lmaku oti hijron g‘ami degan,

Yuz ming jafoni jonima yakbora qildilar.

Aytilishi hijron g'ami deyilgani bilan, aslida, mazmun-ma'nosi o'lmoqlikdir, nechunki, jonimga yuz mingta jafoni bir bora urinishda soldilar. Navoiy deyarli barcha g'azallarini baytma-bayt ma'no va holat jihatidan kuchaytirib, avj – kulminatsion nuqtaga yetkazadi. Mazkur g'azal ham baytma-bat mazmun jihatidan bo'rttirmoqda. Bu baytda oldingi holatning kuchliroq, kuchaytirilgan ko'rinishi tasvirlanyaptiki, g'azalning mat'la baytidagi hijron dardi, endi uning ismigina hijron, asli jonni tark etishlik ekanini ta'kidlab, birgina xanjar bilan yuz mingta jafo etganligini mubolag'a qilmoqda.

Turg'on yoshim oqidilar ul oy firoqida,
Sobitlarimni kavkabi sayyora qildilar.

U oyyuzlini firoqida ko'zimdan yoshlar oqizdilar, ana shu ko'zlarimni doimiy harakatlanuvchi yulduzlar sayyorasi kabi qildilar. Bilamizki, ko'zlar qorachig'i doimiy harakatlanuvchi a'zo sanaladi. Bu yerda ko'z yoki qorachig' ma'nosidagi so'z qo'llanilmagan. Ammo, nazarimizda, shoir yoshim oqdilar, deb, albatta, ko'ziga ishora qilmoqda. Va ana shu qorachig'larini doimiy harakatlanib turuvchi sayyoralar, yulduzlarga qiyoslab, oldingi baytga zidlashuv qilmoqda. Chunki avvalgi baytda o'lmoqlik, jonni jismini tark etishligi xususida so'z yuritilgan bo'lsa, bu yerda tiriklik nishonasi bo'lgan ko'zning harakatlanishi haqida gap bormoqda. Demak, Navoiy oldingi baytda jisman emas, qalban halok bo'lishni nazarda tutgan.

Vo'iz uni surud erur ashg'oli ayshiga,
Qismat kuyinda oniki, mayxora qildilar.

Pand-nasihat aytuvchining ovozi shug'ullanuvchilar turmushiga yoqimli musiqaday bo'ladi, chunki uni qismat kuyida mayxo'r, ichkilikka ruju qo'ygan qildilar. Qismat, taqdir bitigidan kuy kuylanganda shoir mayxo'rga aylanmoqda, sababi nasihat

darslarini o'qiyotgan, amru-ma'ruf qilayotgan voizning ovozi ma'ruza tinglovchilar uchun yoqimli musiqadek bo'lmoqda.

May tutki jon davridin o'q tortilar iloj,
Jam'iki, charx davrini nazzora qildilar.

Endi may tutinglar, jismimga qaytadan jon o'qi tortilsin, butun charx – aylanish, taqdir davriga nazar tashlayin. Mana shu baytda g'azal biz yuqorida keltirgan avj nuqtasiga yetadi. Ya'niki, endi shoir may ichib, butun taqdir yo'llariga, nafaqat o'zining butun insoniyat charxiga, ya'ni olam va odam, zamon va makon, borlik va yo'qlik, baqo va fano masalalariga nazar tashlamoqlikka ehtiyojini bayon qiladi. Albatta, bu yerda may tasavvufiy ma'noda keltirilgan.

Yorab, ne diy alarniki, miskin Navoiyni,
Behushu aqlu bedilu, bechora qildilar.

Yorab, endi nima ham deyinki, chorasiz Navoiyni aqlidan ayirib behush, dilsiz, qalbsiz bechoraga aylantirib qo'ydilar. Maqta' baytida, albatta, shoirning taxallusi orqali imzosi qo'yiladi va chiroyli xulosa qilinadi. Bu g'azalda ham xuddi shunday, yo Tangrim, endi o'zing ayt, meni aqlu hushum, qalbimdan ayirib chorasiz, miskin ahvolga solib qo'yganlarni nima deb atay, deb munojot qiladi.

Segoh maqomining xarakterli xususiyatlari uning kuy ohangida jo bo'lgan mazmun, odatda, sog'inch tuyg'ulari, hijron onlarining hissiy jarayoni bilan bog'liq ekanligini tushunish mumkin. Shuning uchun "Saraxbori Segoh"ning ijro jarayonida xonandalar ana shu onlarni eslab, sog'inch holatidagi obrazni ifoda etishga harakat qilishi lozim. Segohning asl mazmunini ochib berishda bu, albatta, kerak ekanligini e'tirof etish lozim. Ansambl tarkibidagi har bir xonanda bu hissiyotni sezishi, anglashi va xonish qilishda bunga asoslar talqin etishi kerak. Shunda Segohning asl ohangini tarannum etish mumkin bo'ladi. Segohni soxta ohangda ijro etish yaxshi natija bermaydi. Shu bois ehtirosli (me'yoridagi) ijro etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ansambl ijrosida asar so'zining matni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Matnning ayol yoki erkaklar tarannumi uchun mos keladigan baytlarini to'g'ri tanlash ham muhimdir. Ijroda yuqori jozibaga erishish hamda asar dramaturgik rivojini ovozlarga mos holatda shakllantirish ham ijroning yutuqlaridan biridir. Shuning uchun ovozlar almashinuvi va birgalikdagi talqinni asarga mutanosib taqsimlash yaxshi natijalar beradi.

"Saraxbori Segoh" Segoh maqomi ashula bo'limining birinchi guruh sho'balariga tegishli bo'lgan birinchi turkumidir. Segohda 6 ta tarona mavjud. Sarahbordan keyin uning barcha taronalari ketma-ket ijro etiladi. Taronalar Saraxborning davomidir. Ularning hammasi bir bo'lib, bir turkum hisoblanadi. Saraxbor va uning taronalari musiqiy kuyida alohida ohang asos bo'lsa, ularning usul jihatlari turlichadir va har bir tarona o'zining doira usuliga ega. Saraxborni ijro etishdan oldin uni yaxshilab tushunib, o'rganib olish lozim. O'zlashtirish vaqtida esa ularning har biriga alohida to'xtalib o'tish kerak.

Har bir ustoz, o'qituvchi tanlagan asarining hamma xususiyatlarini, avvalo, o'zi bilishi kerak. Birinchidan, bu asarning shakli, diapozoni, so'z-matni, ohangi va ulardan kelib chiqadigan ma'nolarni yaxshi anglagan bo'lishi kerak. Bu jihatlarni asarning nomlanishidan yoki qaysi turkum tarkibiga kirishidan ham bilib olish qiyin emas. Agarda tushunmagan joyi bo'lsa, Shashmaqomni o'rganishga bag'ishlangan kitoblardan, musiqashunoslarning tadqiqotlaridan o'qib, o'rganib olishi mumkin. Ikkinchidan, asar haqidagi ma'lumotlarni talabalarga yaxshilab tushuntirib berish kerak. Bu talabalarga asar haqidagi tushunchalarini boyitishga yordam beradi va tasavvur qilishlari uchun zarur hisoblanadi. Qolaversa, asarni ijro etish uchun qanday xarakterda talqin qilishda yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi. Uchinchidan, so'z-matn va ohangni to'g'ri anglab kuylash uchun asos bo'ladi. Xonish paytida asar mazmunini tasavvur etib kuylashlarida aniq tushuncha bo'ladi. Shundan so'ng asarni o'rganishni boshlash mumkin.

Ansambl bo'lib kuylashning asosiy jihatlari: o'qituvchi ansabl ishtirokchilarini ovoz imkoniyatlarini bilishi; juft (jo'r) ovozlarni to'g'ri tanlab taqsimlashi; umumiy kuylash va yakka ovozlarga

ajratib olishi lozim. So‘ng asar diapozoni, so‘z matnining ma’nolariga qarab bo‘lib o‘rganishni (ijroni) boshlaydi.

Yosh, boshlovchi o‘qituvchilar va talabalar uchun uslubiy ko‘rsatma sifatida “Saraxbori Segoh”ning taronalarini, ansambl ijrosini bayon etib o‘tishga harakat qilamiz.

O‘zbek mumtoz musiqa namunalari, shular qatorida shashmaqom tarkibidagi ashula yo‘llarining barchasi cholg‘u muqaddima bilan boshlanadi. Saraxbori Segohning cholg‘u muqaddimasida maqomning asosiy kuy ohangi yangraydi. Bu Segoh maqomining asosiy kuy ohangi, ya’ni “Segoh mavzusi” hisoblanadi. 1-misol, Saraxbori Segohning boshlang‘ich cholg‘u muqaddimasi:




Segoh maqomining asosiy mavzusi birinchi xatda to‘liq ifodasini topgan va buni yaxshilab eslab olish maqsadga muvofiqdir. Cholg‘u muqaddimadan keyin aytim muqaddimasi boshlanadi va bu an’anaviy musiqaning birinchi tarkibiy qismi “daromad” deb yuritiladi. Maqomlarning ashula bo‘limidagi daromad “birinchi xat” deb yuritiladi va asar davomida so‘z-matnining har bir misrasi alohida xatlar tarkibida 2-xat, 3-xat, 4-xat deb tartiblashtiriladi va ijro etiladi. 2-misol:




Aksariyat holatlarda ansambl qatnashchilariga asarning boshlang'ich pardalari past ovozlardan boshlanganligini, maqomlarning xususiyatini hamda o'ziga xosligini inobatga olib taqsimlangan. Asarning boshlang'ich qismi ayol ovozlariga mos. Shuning uchun daromadni ayol ovozlardan boshlash o'rinlidir. Darhaqiqat, Saraxbori Segoh daromadida ayol ovozlardan boshlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi xat ikki jumladan iborat bo'lib, unda ayol va erkak ovozlarini alohida ko'rsatish kerak. Bu bilan avvalo ijroning rang-barangligini namoyon etish mumkin. Va asosiy maqsad bo'lgan ansamblning ovozi to'g'ri kelishini bilib olish lozim. Shuning uchun birinchi jumlani ayol ovozlarga va ikkinchi jumlani erkak ovozlarga berish o'rinli bo'ladi. 1-xat erkak ovozlar bilan nihoyalanadi. 2-misol:



Birinchi xat 10 taktli hang bilan yakunlanadi, bu o'ziga xos hang Segoh mavzusini yorqinroq ko'rsatishga xizmat qiladi. Shu bois uning ijrosini aniq va ehtirosli tarannum etish maqsadga muvofiqdir. Shundan so'ng cholg'u kuyisiz ikkinchi xatga o'tiladi. Ikkinchi xat odatda "Miyonxona" deb yuritiladi. Miyonxona o'rta pardalarda ijro etiladi. Saraxbori Segohning miyonxonasi ham hanglarga boyligini qayd etish lozim. 4-misol:




Ikkinchi xatni yana ayol ovozlar bilan boshlash o‘rinli bo‘ladi. Ikkinchi jumladan erkak ovozlar davom ettiradi. Ikkinchi xat to‘rt jumladan iborat hanglarga ulanadi. Hanglarni ham matnga qarab har ikki ovozlarning aytishuvi singari bo‘linishi maqsadga muvofiqdir. Ketma-ket almashib ijro etilgandan so‘ng xatning oxirgi to‘rtinchi

jumlasida barcha xonandalar birgalashib yakunlaydilar. Bu, albatta, asar salohiyatini namoyish etish bilan izohlanadi.

Navbatdagi ijro etiladigan bo'limni cholg'u tayyorlab beradi va Saraxborning dunasr, ya'ni oktava yuqori pardalarda ijro etiladigan bo'limi boshlanadi. Saraxbori Segohning dunasrida asosiy mavzu qaytariladi. Qizig'i shundaki, bu o'rinda asosiy Segoh mavzusi "Namudi Segoh" ko'rinishida keladi. Namud ham ikkiga bo'linib, ayol va erkak ovozlarning alohida ijrosi bilan davom ettiriladi. 5-misol:




Ansambl ijrochiligida ayol ovozlarni muntazam tarzda erkak ovozlar bilan almashinishida o'ziga xos ma'no bor. Buni bir necha kerakli va zarur tomonlari bilan xarakterlash mumkin. Xususan, ansambl talqinida:

– asarning har bir jumlasi alohida ovoz rangida talqin etiladi va ijro rang-barangligini ta'minlab beradi;

– ayol va erkak ovozlarni o'zaro aytishuvi, musobaqasi shakllandi va ijodiy munosabatni boyitadi;

– ijroning jozibasini ko'taradigan savol-javob ohang tizimi yuzaga keladi va xonandalarning tasavvuri doirasida tafakkurini ishga solishga undaydi;

– ijro etilayotgan asarning yaxlitligini namoyon etishda har bir jumlaning yakunlanganligi, o'ziga xos mustaqilligi va asar rivojidagi birligini ko'rsatib beradi;

– asar tarkibidagi navbatma - navbat kelayotgan har bir jumlalarga o'ziga xos tayyorlab beradi;

– ansambl ijrosidagi jo‘shqinlik, jamoaviy ijro jozibasini yaratib beradi.

Navbatdagi keladigan 3-xat asarni avj tizimiga tayyorlash desa bo‘ladi. Shuning uchun erkak ovozlar tomonidan amalga oshirilgani ma’quldir. (Ayol ovozlar ham ijro etishlari mumkin, lekin ovozlarni o‘ta qiynash ham bemaqsad qilingan ishdir. Shuning uchun ayol ovozlarni baland pardalarda urintirmaslik maqsadga muvofiq).

Odatda ustozlarning ansambl ijrochilik an’analarida maqomlarning avj tizimi aksariyat hollarda erkak ovozlar tomonidan ijro etib kelingan. Saraxbori Segohning ijrosi ham katta mahorat talab etuvchi maqomlar qatoriga kiradi. Shuning uchun 3-xatdan boshlab erkak ovozlarni bo‘lib-bo‘lib ijro ettirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ansambl ishtirokchilarini juft ovozlarga (imkoniyatiga qarab ovozlari bir-biriga moslarini tanlab) bo‘lib olish lozim bo‘ladi.

IV – V va VI xatlarda asosan avjlar ijro etiladi, ya’ni avjlar silsilasi desa ham bo‘ladi. Bu asarning kulminatsion qismidir. Avj tizimining boshida Navo namudi keladi. 6-misol:






Ushbu namudni yuqori pardali erkak ovozlarga topshirish lozim (ijroni yakka xonandalarga va jo‘r ovozli xonandalarga bersa ham yaxshi natija berishi mumkin). Ular jumlalarni bo‘lgan holda, bir-birini to‘ldirishlar evaziga ketma-ket ijro etib, avj tizimining turli pog‘onalar jozibasini ko‘tarinki ruhda ko‘rsatib berishlari kerak. Ovoz talqinining ravonligi, shiddatli tarannumiga e’tiborliroq bo‘lish talab etiladi.

Saraxbori Segohning VI xati avjlar tizimining yana bir bosqichidir. Bu xat asosan Orazi Navo namudiga asoslangan. 7-misol:




Buni jozibali ijro etish lozim bo‘ladi. Asosiy pog‘onalardan chekinmasdan, ladning tizimida ijro etiladi. Ushbu namud asarning

yakuni bo'lmish pirovard qismiga tayyorlab beradi, VII xatga olib keladi. Bu avj tizimini o'ziga xos xulosalash desa ham bo'ladi.

VII xat asarning yakunlovchi qismi bo'lib, ayol ovozlar talqinida sokinlikni ta'minlab boshlash lozim va sekin-asta xatning ikkinchi jumlasidan erkak ovozlar qo'shiladilar. Natijada ansamblning barcha ishtirokchilari birgalikda ijro etadilar va Saraxborni yakunlaydilar. Saraxborlarni yakunlash juda muhim, asar yakuniga etishi kerak. Hech bo'lmaganda bir soniyaga to'xtab, keyin taronalarni boshlash maqsadli bo'ladi. Saraxbori Segohning o'z salohiyati bor. Bu asarning ijrosi ham shunday bo'lish kerakki, insonlarning xijron, sog'inch, qo'msash kabi ruhiy holatlarini ifodalovchi ohangda talqin qilishga erishishni o'ylab ijro etish kerak. Shunda Segoh maqomining Saraxbori ijrosi maqsadiga erishish mumkin. 8-misol:




Saraxborlarning taronalar bilan to'laligicha ijro etish maqom san'atining qonunlaridandir. Turkumiy asar bo'lgan Saraxborlarning Segoh maqomi sho'basi ham to'laligicha ijro etib kelingan. Odatda Saraxbor yakuniga yetgandan keyin ustozlar maqomlarning ansamblli ijrolarida taronalarga o'tganlar. Taronaga o'tishda ustozlar uch uslubdan foydalanganlar. Xususan: birinchisida, Saraxbor tugagandan keyin bir takt usul berib, birinchi taronaga o'tilgan; ikkinchisi, Saraxbordan so'ng bitta usulni o'tkazib, keyin ijroni boshlaganlar. Buni usul bilan o'tish deyilgan; uchinchisi, taronaga tegishli bo'lgan daromadni cholg'uda chalib berib, keyin xonishni boshlaganlar.

Ansambl uchun avvalo har uch usulni yaxshilab uqtirish lozim. Talabalar ularni yaxshilab anglab olganlaridan keyin birini tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ular keyingi yoki oldingi ijrolarni qaysi uslubda bo'lmasin yo'llarini bilib oladilar. Shu bois ular uch uslubni

bilib olgach, keyin ulardan birini tanlab, vaziyatga qarab ijroga o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Eng muhimi, ijroning nuqsonsizligini ta'minlashdan iborat. Chiroyli va toza ijroga erishish juda ham muhim.

Odatda taronalar Saraxborning asosiy mavzusidagi g'oyani davom ettiradilar. Ularning usullari, albatta, o'zgarib keladi. Har bir tarona o'zining usuli va tezlik sur'atiga ega. Muhimi, ularning uzluksizlik, bir-biriga ulanish joylarini yaxshi anglanishidadir.

Segoh taronalari ham oltita va ular turli usullarda ijro etiladi. Saraxbori Segoh taronalarida usul sekin-asta yurgiziladi. Usullarning murakkablashishi ohangni jonlanishiga ham sabab bo'ladi. Jo'shqinlik va e'tibor bilan ijro etish talab etiladi. Usullar taronalarning xarakteriga ham ta'sir etadi. Taronalar Saraxborga nisbatan kichik shaklga ega. Sho'baning 1-taronasi Tarje'i Segohning doira usuliga asoslangan. Sur'ati unga ko'ra yurgizilib ijro etiladi.

Taronaga ustoz Yu.Rajabiy Huvaydoning "Nogahon gulzor aro yorim mening" so'zini qo'yib ijro etgan.

Nogahon gulzor aro yorim mening
Sayr aylab kirsa dildorim mening.

Desalar yoring yuzi monandi gul,
Ushbu so'zdin kelgusi orim mening.
Emdi ul mah ishqi birla bo'ldi der,
Bul Huvaydo yig'lamoq korim mening.

1-taronani ayol ovozlar boshlab berganlari ma'qul. Shu bilan birga, ovozlarni juftlagan holda taqsimlash yaxshi natija berishi mumkin. Erkak va ayol ovozlarning almashinuvini aytishuv uslubiga yo'naltirish lozim.

9-misol:




2-tarona birinchi taronaga bog'lab ijro etilgan. Kuy sur'ati ham o'zgacha, takt hissasi ham uch chorakni tashkil etadi. 2-tarona birinchisiga nisbatan sur'atiga ko'ra sal jonliroq. Ohangi birinchi taronaning davomi sifatida shakllangan. Doira usuli ham o'ziga xos bir jumlani tashkil etadi. Unda ikki taktli usul, ya'ni bir usul ikki takt davom etadi. Lekin olti chorakli usul tizimining mazmunini beradi. Ohang esa bir usulda (ikki taktda) bir jumlaga mos keladi. Taronaning matniga ijro jarayonida qo'shimcha yordamchi so'zlar juda ko'p ishlatilganligini ko'rish mumkin. Taronaning kuy-ohang mavzusi shuni talab etadi va o'ziga xos jozibani tashkil etadi. Bundan tashqari, ohang rivojida qaytarishlar ham ko'p uchraydi. Bu ijro jarayonida ovozlarning almashinuvi, savol-javobni joyiga qo'yib ishlatish uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Taronaning so'z matni:

Ul sha'mi jamol o'tig'a parvonalig'im yor masti tuman,
Bozoki dilash az poyi ozorai mast yor mastu dilam.

Shirin labash az poi vay, xun xorai mast masti tuman,
Dar rohi vafo, hamisha po basti tuman, g'am xori tuman.

2-tarona talqinida ovozlar almashinuvi yana qisqaradi. Shuning uchun ayol ovozlarni juftlab taqsimlash lozim. Kuy shuni talab etadi. Bunga sabab so‘zlarning ko‘p marotaba qaytarilishi bo‘lishi ham mumkin. Lekin ohang rivoji ham shuni talab qiladi. Birinchi jumlaning o‘rtasidan ayol ovozlarga erkak ovozlarning qo‘shilishi ijroni yanada jonlantiradi. 2-taronada rang-barang ovozlarning tez-tez almashinuvi, savol-javob uslubini qo‘llash uslubidan foydalanish ijroga joziba bag‘ishlaydi. 10-misol:




Saraxbori Segohning uchinchi taronasi ikkinchi taronadan unchalik farq qilmaydi. Har ikki taronaning usuli bir xil. So‘z matni ham shunga mos:

Qila boshlading menga zulmikim,
Sitam etdi jabru jafolaring,
Ki vafog‘a va’dalar aylabon,
Qani va’dalarga vafolaring,

Ruhima go‘zal xati mushkaso,
Labi la’li nuktai jon fizo,
Ko‘zu qoshi ham biri xush ado,
Meni o‘rtadi shu balolaring.

Menga noz qildi tag'ofiling,
Dili jon duoga yugurdilar,
Ko'z uchi bilan qarading kulib,
Talabiga yetdi gadolaring.

Necha yil ko'ngul, kechalar fig'on,
Qilib o'tayin ani ko'yida,
Dili tosh ekan asar aylamas,
Bu fig'on ila bu navolaring.

Uchinchi taronaning sur'ati ikkinchiga nisbatan sezilarli darajada tezroq ijro etish kerak. Buni notadagi metronomdan ko'rish mumkin va e'tibor berish kerak. Shu sabab uchinchi taronani ikkinchi taronaning mazmunan davomi deyish mumkin. Lekin ularning ohangida farq bor. Ohang mavzusida ushbu narsa kuzatiladi. Shunga e'tibor berib ijro etish lozim.

Ijro jarayonida ovozlar taqsimotiga e'tibor, jozibani namoyon etadigan holda yondashish lozim. Uchinchi taronani erkak ovozlar bilan boshlash mumkin. Shundan so'ng har bir jumlada ayol ovozlar bilan almashinib boradi. Rang-baranglik uchun ovozlarni juftlab berish mumkin. 11-misol:



Saraxbori Segohning 4-taronasi murakkab usulga ega. Taronalar borgan sari murakkablashib borishi shunda yaqqol seziladi. Hazrat Navoiyning murakkab usulga mos keladigan g'azali tanlangan:

May birla yuzing tim-tim, amarmu ekan oyo
Yo sho'la aro bir-bir, ahgarmu ekan oyo.

Har sori qulog'ingda, gavharmu ekan, yohud,
Har joni bila oyning, ahtarmu ekan oyo.

El desa Navoiyni, kim javr ila tark etdi,
Ishqingni senga bu so'z, bovarmu ekan oyo.

Ushbu tarona oldingilaridan har tomonlama murakkabligi bilan ajralib turadi. Taronaning takt o'lchovi 13/4. 13 hissali usul. Bu usul 13 chorakda yozilgan bo'sada, ijro paytida ikkiga bo'lib ijro etiladi, ya'ni 7 – 6 hissaga. Sur'atning tezligi uchun jo'shqinroq ijro etish talab etiladi. Taronaning oxirigacha har bir usul bir jumlaga to'g'ri kelgan va ijroda ham har bir jumla alohida ovozlarda talqin etiladi. Taronani ayol ovozlar boshlaydi. Erkak ovozlar bilan almashinib, misra yakunidagi jumla ikkinchi marotaba qaytarilishida erkak va ayol ovozlar birlashgan holda ijro etadilar va misrani yakunlaydilar. To'rtinchi tarona shu zaylda ijro etiladi. 12-misol:

Segoh maqomidan




Saraxbori Segohning 3 va 5-taronalarining usuli va ularning tezligi ham deyarli bir xil. Ular faqat ijroda jonliroq va shunga mos talqin etilishi lozim. So‘z matni qisqa bo‘lsada, takrorlar evaziga taronaning ko‘lamini ko‘rsatib ijro etiladi:

Suhsur degan qush bo‘lur,
Tortsam pati bo‘sh bo‘lur,
Yor oldiga borganda,
Yigit ko‘ngli xush bo‘lur.

Suv oqar tosh ustida,
Sallasi qosh ustida,
Suyganim esga tushganda,
Yig‘layman osh ustida.

5-taronaning ijrosidagi ovozlarning almashinuviga e’tibor berish lozim. Turkumning dramaturgik cho‘qqilaridan hisoblanadi. Shu bois ko‘tarinki ruh bilan jozibador talqin qilishga harakat qilish lozim bo‘ladi. 13-misol:




Turkumning oxirgi 6-taronasi o‘ziga xos vazmin xarakterga ega. Shu bois bo‘lsa kerak so‘z matnining ham vaznlari bir xil:

G‘amza bilan olib jonim,
O‘sar qora zulfing seni,
Sabo tongi nasimidin,
O‘sar qora zulfing seni.

Yozlasam yorning bog‘ida,
Qishlasam ko‘ksi tog‘ida,
Subhidam sahar chog‘ida,
O‘sar qora zulfing seni.

Tong yulduzi porlab, porlab,
Shona bilan zulfing tarab,
Tong saharda yaltirab,
O‘sar qaro zulfing sening.

Bir qaraganda 5-taronaning davomi desa ham bo‘ladi. Ularning usulida farqi bor, xolos. Vazmin ufor usuliga asoslangan. Sur’at ham deyarli o‘zgarmagan. Ularning ketma-ketligi ijroda ham bilinmay ketadi. 14-misol:




Saraxbori Segohning yakunlovchi taronasida suporish qismi mavjud. O'z o'rnida suporish ham alohida tarona xususiyatlariga ega. Shuning uchun bo'lsa kerak, ijrochilik amaliyotda suporishni "yettinchi tarona" deb ham yuritiladi. Suporishning o'ziga xosligi talqincha usuliga asoslangan. Takt o'lchovi quyidagicha: 3/4; 3/8. Suporish yakunlovchi qism. Shuning uchun ansambl to'laligicha, barcha ayol va erkak xonandalarning birgaligida ijro etiladi. 15-misol:



Saraxbori Segoh ijro uchun murakkab maqomlardan biri hisoblanadi. Uning ijrosi uchun maqom ohangini, so'z matnlarini yaxshilab o'zlashtirib olish lozim. Lekin ijro etish jarayonida xonandalarda katta ishtiyoq uyg'onishi muqarrar. Chunki Segohda har bir insonning ichki kechinmalarini, tuyg'ularini ifodalashda va ehtiros bilan talqin etishda o'ziga xos joziba mavjud.

Saraxbori Segohning taronalari ham Saraxborning o'zidek mushkulroq. Bu nafaqat musiqiy ohanglarining rivojlanishlarida, balki ularning doira usullarida ham sezilib turadi. Ayniqsa, ijro etishda alohida e'tibor berish talab etiladi.

Segoh maqomi ustoz san'atkorlar rahbarligi ostida bir necha bor ijro etilgan. Har bir ijroda ham ustozlar ansamblning talqinida ovozlar bo'linishiga, erkak hamda ayollarning ovozlariga o'ziga xos e'tibor bilan yondashganlar. Ustoz san'atkor, akademik Yunus Rajabiy rahbarligida ijro etilgan namunasi haligacha barcha yosh ansambllar uchun o'rnak vazifasini o'tab keladi.



*O'zbekiston teleradiosi qoshidagi, Yu.Rajabiy rahbarligidagi maqom ansambli. (1967-y.)*

Ustoz san'atkorlar Saraxborni juda katta mahorat, ehtiros bilan, ovozlarni o'rniga qo'yib talqin etishgan. Asarning har bir jumlasi ma'nolariga mos keladigan alohida ovozlarda talqin etilgan. Maqomlarni ansambl bo'lib ijro etishda ashulani ovozlarga

(xonandalarga) taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ustoz Yunus Rajabiy Saraxbori Segohni ijro etish jarayonida ayol ovozlaridan unumli foydalanganlar. Ayollarning ovozlari ehtirosliligi shu paytdagi ijrochilarning baland salohiyatga egaligidan bo'lsa ajab emas. Bundan tashqari, erkak ovoz ijrochilari ham saralangan va zamonasining dongdor xonandalari bo'lgan. Shuning uchun bu ijro juda mukammal talqin etilgani e'tirof etilgan. Hattoki, ustoz bu ijroda kimlarning uslublaridan foydalanilgani xususida "Musiqa merosimizga bir nazar" kitobida alohida to'xtalib o'tgan: "Ansambl faoliyatida maqomotning ijrochilik an'analari va mashhur ustozlar, jumladan, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Levicha, M.Tolmasov, Shorahim Shoumarov, G. Mullaqandov kabilarning aytish uslublaridan barakali foydalanildi"[27]. Bu ham ustozning kamtarona munosabatlari va yoshlar uchun ibrat namunasidir. Shu bois bo'lsa kerak, har bir ijodkor ana shu namunaga asoslanadi va ijodiy yondashib keladi.

Ijro amaliyotida Saraxbori Segohning ijrosiga ana shunday ijodiy yondashib ijro etish 20 yildan so'ng, yangi yosh xonandalar va O'zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov rahbarligida amalga oshirilgan. Buning uchun rahbarning rahbarlik bilimi, salohiyati, eng muhimi ustozlardan olgan o'giti va ustozlarning (o'zbekona qilib aytganda duosini) ijozatini olgan bo'lishi juda muhim. Shuning uchun bo'lsa kerak, ustoz Abduhoshim Ismoilov Saraxbori Segoh talqiniga o'ziga xos yondashdi. Ijro ham turli uslublar bilan boyitildi. Mazkur ijro Yu.Rajabiy talqinidan unchalik farq qilmaydi, lekin ijodiy yondashilgani sezilib turadi.

---

[27] Yunus Rajabiy. Musiqa merosimizga bir nazar, T., 1978.11-b.



*O'zbekiston Respublikasi "Badiiy jamoalar" direksiyasi qoshidagi Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli. Badiiy rahbar – O'zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov (2015-y.)*

O'tgan asrning 80-yillariga kelib sozandalik san'ati juda rivojlanib ketdi. Cholg'ularning ansambldagi yakkanavozliklariga ham katta e'tibor berila boshlandi. Har qanday mohir san'atkor uchun ansambl tarkibida yakkanavozlikni namoyish etish faxrga aylandi. Albatta, buning uddasidan chiqish uchun mohir bo'lish lozim bo'lgan. Bunga jur'at etishni ham o'ziga xos qiyinchiliklari bo'lgan.

Ustoz san'atkor, mohir sozanda va bastakor Abduhoshim Ismoilov o'zining barcha imkoniyatlarini ansambl ijrosida namoyish etishga erishgan desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ushbu ijroda ansambl tarkibi, avvalo, cholg'ular bilan to'ldirilgan. Shunga yarasha ijro ham ancha boyitilgan. Ovozlarning bo'linishiga ham yakkanavoz va yakkaxonlarga nisbatan o'ziga xos yondashilgan. Oldingi ijroda daromad erkak ovozlar bilan boshlangan bo'lsa, keyingi ijroda bu vazifa ayol ovozlarga topshirilgan. Ovozlar taqsimoti, yakka ijrolar va ansamblli ijrolar ham o'ziga xos amalga oshirilgan.

Avvalo, ansambl ijrosiga ijodiy yondashish uchun rahbarda shunga mos salohiyat, musiqiy meros, ayniqsa, Shashmaqom an'analaridan muayyan bilim, Shashmaqom ijrochilik an'anasiga xos tajriba va ustozlarning ishonchi (o'zbekona qilib aytganda duosi)ni oqlagan bo'lishi lozim.

Ushbu qo'llanmani yaratishdan maqsad ham ustozlar an'analaridan kelajak avlodni bahramand etish. Mustaqillik davriga kelib maqom ijrochilik san'ati sezilarli rivojlandi. Ta'lim jarayonining o'rta va boshlang'ich tizimlarida joriy etildi. Ustozlar an'analarining doimo dasturulamal bo'lishi kelajak avlod bilimlarining asosli va mustahkam bo'lishining garovi desak mubolag'a bo'lmaydi. Qolaversa, Shashmaqomning murakkab Saraxborlarini taronalari bilan ijro etish O'zbekiston davlat konservatoriyasining talabalar ansambllari tomonidan munosib amalga oshirilmoqda. Zamonamiz yoshlarining bunga barcha imkoniyatlari mavjud ekanligi ularning baxtidir.



*O'zbekiston davlat konservatoriyasi "An'anaviy ijrochilik" kafedrasi talabalar ansambli.*

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


| | |
|---|---|
| I.Akbarov. | Musiqa lug'ati.-T., 1987. |
| I.Rajabov | "Maqomlar.-T., 2006. |
| Yunus Rajabiy. | O'zbek xalq musiqasi. V jild.-T., 1957. |
| Yunus Rajabiy. | Shashmaqom V tom.-T., 1966. |
| Yunus Rajabiy. | Musiqa merosimizga bir nazar.-T., 1978-y. |
| S.Begmatov, | "Hofizlik san'ati".-T., 2007. |
| | O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.-T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashri. |
| O'.Rasulov. | "An'anaviy xonandalik o'qitish metodikasi".-T., 2006. |
| | O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. I harfi. |
| B. Qodirov. | Iste'dod. "Tafakkur" jurnali .-T., 2007. № 3. |
| Д.Муллакандов. | О некоторых особенностях и видах узбекского националного пения, //Народные музыканты Узбекистана.-Т., Гос. изд. 1959. |
| К.Алимбаева, М.Ахмедов. | Narodnыe muzыkantы Uzbekistana, 1-kniga.-Т., «Гос.изд.», 1959. |
| B. Shomaxmudova | Xor lug'ati.-Toshkent "Musiqa", 2009. |
| T.Qodirov | Musiqa o'qitish metodikasi.-Toshkent, "Muharrir", 2010. |
| K.Bo'rieva | "An'anaviy xonandalik" (Ayollar ovozlari uchun).-T., 2008. |
| G.Muxamedova. | Xonandalik uslubiyati asoslari.-T., 2007. |

# ANSAMBL IJROSIGA MOSLASHTIRILGAN SARAXBORI SEGOH VA UNING TARONALARI NOTA NAMUNASI

# SARAXBORI SEGOH

Segoh maqomidan




vasl i - la ko'ng - lum ja - ro - - ha -
ti. O
Yigitlar
O Hij - ron qi - li - chi
bir - la ya - na yo - ra qil - di -
Qizlar
lar. O O
Yigitlar
O O
O O
Qizlar
O Hay
jo - - ni - - mo o.
Hamma
O O
O


Qizlar
But - ku - dek er - - di vasl i - la,
ko'ng - lum ja - ro - ha - ti.
Yigitlar
Hij - ron qi - li - chi bir - la ya -
na yo - ra qil - - di - lar.
Yigitlar
Maz - mu - ni o'l - ma -
ku o - ti hij - ron g'a - mi de -
gan, o yor - yo -
rey, o o
Yigitlar
yo - ra - mo. Yuz ming ja -
fo - ni jo - ni - ma yak - bo - ra
qil - - di - lar. O o


Yigitlar
Tur - g'on yo - shim o - qiz - di - lar ul
Yigitlar
oy fi - ro - qi - da, so - bit - la-
rim - ni kav - ka - bi say - yo - ra qil - di-
lar. O o
o
Vo' - iz u - ni su - rud e - rur
ash - g'o - li ay - shi - g'a,
o o
Qis - mat ku - yin - da
o - ni - ki may - xo - ra qil - di-


lar O yo yor
e, yo - re o
o o
Jo - nim
Yigitlar
May tut - ki jom
dav - ra - din o'q top - ti - lar i -
Yigitlar
loj o Jam' - i - ki
charx dav - ri - ni naz - zo - ra
qil - - di - lar o.
Qizlar
Yo - rab, ne diy a - lar - ni - ki.
mis - kin Na - vo - iy - ni
o




## TARONA I

M.M. ♩=84-86






# TARONA II

M.M. ♩=84-88




Qizlar
Qizlar
Yigitlar
e o'- ti - g'a, vay, vay, par - vo - na - li - g'im, par -
vo - na - li - g'im, par - vo - na - li - g'im, par -
Qizlar
- vo - na - li - g'im, yor mas - tu tu - man. Bo - zo - ki di-
lash, bo - zo - ki di - lash, bo - zo - ki di - lash,
e az po - yi, vay, vay, o - zo - ra - i mast. o -
zo - ra - i mast, o - zo - ro i mast. o -
zo - ra - i mast, yor mas - ti tu - man. Shi - ri - ni la-
bosh, shi - ri - ni la - bosh, shi - ri - ni la bosh, e az po - yi
vay, vay xun - xo - ra - i mast, xun - xo - ra - i mast, xun -
- xo - ra - i mast, xun - xo - ra - i mast. yor mas - ti tu-
man. Dar - ro - hi va - fo, dar - ro - hi va - fo, dar - ro - hi va
fo, e ha - mi - sha vay, vay, po - bas - ti tu - an g'am -




## TARONA III

**M.M. ♩=88-92**




Yigitlar
shu ba - lo - la - ring.
Men-ga no - zi - qil - - -
Yigitlar
-di ta-g'o - fi - ling,
Di - lu jon du - o - - ga yu-gur - di - lar,
Yigitlar
ko'z u - chi bi - lan qa - ra - ding ku - lib
Qizlar
ta - la - bi - ga yet - ti ga - do - la - ring,
Qizlar
Ne-cha yil ko'n - gul, ne - cha - lar fi - g'on,
Qizlar
qi - lib o' - ta - yin a - ni ku - yi - da,
Qizlar
Di - li tosh e - kan a - sar ay - la - mas,
Qizlar
Bu fi - g'on i - la bu na - vo - la - ring.
Yo - rim, yor, yal - la - lol - lo, yal - la - li -
do'st, jo-nim yor yal - la - lal - lo. yal - la - li do'st.
attacca

# TARONA IV

Segoh maqomidan




kim javr i - la tark et - - ti yo - rey,
Yiigtlar
Ish - qing - ni sen - ga. bu so'z yo - rey.
bo - var - mu e - kan o - - yo.
attacca

## TARONA V


M.M. ♩=96
Yigitlar
Suh - sur de - gan qush bo'- lur,
Qizlar
Tort sam pa - ti bo'sh bo'- lur,
Yigitlar
Yor ol - di - ga bor - gan - da - yo,
Qizlar
Yi - git ko'ng - li xush bo'- lur.
Qizlar
Suy o - qar tosh us - ti - da,
Qizlar
sal - la - si qosh us - ti - da.
Yigitlar
Suy - ga - nim es - ga tush - gan - da - yo




# TARONA VI

M.M. ♩=100-104




Yigitlar
ko'k - si to - g'i - da, sub - hi - dam
Yigitlar
sa - har cho - g'i - da - yo o' - sar
Qizlar
qa - ro zul - fing se - ni. Tong yul -
Qizlar
du - zi por - lab, por - lab, Sho - na
Hamma
bi - lan zul - fing ta - rab, tong sa - har -
-lar - da yal - - ti - rab o'y - nar
Siporish
qa - ro ko' - zing se - ni,
Hamma
Sad - qa, sad - qa, sad - qa sha - vam, ey, boz chash -
mo - ni tu - ro, la'- li se - ro - - bi tu -
ro, zul - fi pur - chi - - ni tu - ro.
Sad - qa, sad - qa, sal - qa sha - vam, ey. boz chash -
mo - ni tu - ro, sad - qo.
attacca

## Mundarija

Kirish........................................................................................................ 3

Ansambl........................................................................................................ 6

Xonandalar uchun zarur bo'lgan jihatlar........................................................ 12

Yosh xonandalarni ansambl ijrochiligiga tayyorlash

jarayonining kasbiy omillari…………………………………………………… 27

Saraxbori Segoh…………………………………………………………… 33

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati................................................................ 59

Ansambl ijrosiga moslashtirilgan

Saraxbori Segoh va uning taronalari (nota namunasi) .................................... 60

## Содержание

Введение.................................................................................. 3

Ансамль.................................................................................. 6

Необходимые рекомендации 12
вокалиста...................................................

Подготовка молодых вокалистов в основе профессионально

исполнении в ансамбле ……………………………………………….… 27

Сарахбори Сегох………………………………………………….. 33

Список использованных литератур....................................... 59

Предназначен к исполнению Сарахбори Сегох и его тарона

в ансамбле (образец ноты) ..................................................... 60

Contents

Introduction...................................................................................3

Ensemble........................................................................................6

Properties for singers.................................................................... 12

Preporation of young singers to perform in ensemblesз 27

Saraxbori segoh……………………………………………………….33

List of used resources....................................................................59

Ansambl ijrosiga moslashtirilgan

Saraxbori Segoh and it's melodies (note samples) ..........................60

**Komilaxon Bo'riyeva**

# ANSAMBL SINFI

(An'anaviy xonandalik)

*Oliy ta'lim muassasalari uchun*
*o'quv qo'llanma*


| | |
|---|---|
| Noshir: | *A.Rahimov* |
| Muharrirlar: | *A.Mansurov,* |
| | *O.Ergasheva* |
| Badiiy muharrir: | *Sh.Odilov* |
| Texnik muharrir: | *N.Ismoilova* |
| Kompyuterda tayyorlovchi: | *L.Abdullayev* |

Nashriyot litsenziya raqami: AI № 126.2008.12-noyabr.

“Musiqa” nashriyoti. Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 1.

Bosishga 4.06.2018 yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.“Tayms” garnitura.
Shartli b.t. 9,0. Nashr b.t. 8,8. Adadi 350 nusxa (1-zavod 50 nusxa).
Bahosi shartnoma asosida. Buyurtma № 64

“Complex Print” MChJ da chop etildi. Toshkent sh. Navoiy ko‘chasi, 24.
Tel.: 244-40-89, e-mail: complex.print@mail.ru.
Litsenziya № 10-3606. 10.02.2016.

*Komilaxon BO'RIYEVA*

# ANSAMBL SINFI

## *An'anaviy xonandalik*

ISBN 978-9943-5153-5-2

9 789943 515352